



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI OZARBAYJONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.

Fuzuliy shahri aeroportida oliy martabali mehmonni Ozarbayjon Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari Yaqub Ayubov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy samitida ishtirok etish uchun Shusha shahriga keldi.

Davlatimiz rahbarini bu yerda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev kutib oldi.

TDT ishtirokchi mamlakatlari delegatsiyalari rahbarlari Ozarbayjon yetakchisi hamrohligida Shusha shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Shusha “Qorabog‘ durdonasi”, “Kavkaz san’ati markazi” va “Ozarbayjon musiqasi beshigi” nomlari bilan ma’lum. Shahar bir qator taniqli fan, madaniyat va san’at arboblari vatanidir. 2021-yildan buyon Shusha Ozarbay-

jonning madaniy poytaxti hisoblanadi, 2023-yilda esa turkiy dunyo madaniy poytaxti deb e’lon qilingan.

Joriy yilda Xiva shahri va Shusha shahri o‘rtasida birodarlik aloqalari o‘rnatildi.

Oliy martabali mehmonlar Shushada o‘ttiz ikki yil ichida birinchi marta qurilgan turar joy majmuasiga tashrif buyurdilar. 23 ta binodan iborat uy-joy majmuasining umumiy maydoni qariyb 8 gektarni tashkil etadi.

So‘ng yetakchilar 2021-yilda tamal toshi qo‘yilgan yangi zamonaviy masjid loyihasi va uni barpo etish jarayoni bilan tanishdilar.

Ozarbayjon rahbari mehmonlarga shahar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi rejalarni haqida so‘zlab berdi.

Prezidentlar, shuningdek, XIX asrda Shushada qurilgan birinchi masjid — Gavhar Og‘a masjidini ziyorat qildilar. Mehmonlar bu yerda amalga oshirilgan

restavratsiya ishlarining natijalariga yuqori baho berdi.

6-iyul kuni Prezidentimiz Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy samitida ishtirok etadi.

Davlat rahbarlari kengashining “Transport o‘zaro bog‘liqligi va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish orqali barqaror kelajakni barpo etish” mavzusida bo‘lib o‘tadigan navbatdan tashqari yig‘ilishi kun tartibidan savdo-iqtisodiyot, transport-kommunikatsiya va investitsiya-moliya sohalarida, shuningdek, “yashil” iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energetika, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va inson kapitalini rivojlantirish borasida mintaqaviy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

Tadbir yakunida qator qo‘shma hujjatlar qabul qilinishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Prezidentining Ozarbayjonga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O‘ZA

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

TEMIR INTIZOMGA ASOSLANGAN IJRO INTIZOMI — SAMARADORLIKNING BOSH OMILI



Ijro intizomining mustahkam poydevori — bu shaxsiy mas’uliyat, temir intizom, kasbga mehr va professional mahorat. Ijro intizomi samaradorlik omili hamdir. Chunki u tashkilot yoki jamoa a’zolarining faoliyati muayyan tartib va qoidalariga muvofiq amalga oshirishini ta’minlaydi. Bu tushuncha davlat boshqaruvida ham, xususiy sektorda ham muhim ahamiyatga ega. Tashkilotning barcha darajasida intizom va tartibni ta’minlashga qaratilgan.

Davomi 3-betda

Oltin sirg‘a

Ibrohim G‘afurov saboqlaridan uzindilar

O‘ZBEKISTON QAHRAMONI, TANIQLI MUNAQQIDNING ZOMIN SEMINARI YOSH IJODKORLARIGA AYTGAN UYG‘OQ FIKRLARI



Zomin seminari adabiy, insoniy, ijobiy va tarixiy qimmatga ega. Chunki siz — barcha ishtirokchi yosh qalbida birinchi kitobingiz, dostonu hikoyangiz, badialaringiz jaranglab turibdi. Buni sezyapman. Shu kunlarda Zomin bag‘rida ulug‘ bir ijodiy muhit paydo bo‘lgan. Millatimiz ruhi —Sakkokiy, Lutfiy, Atoyi, Navoiy, Bobur mirzo kabi bobolarimiz ruhi sizning qadamingizda, qiyofangizda, nafaslaringizda kezib yuribdi.



Siz davlatimiz rahbari aytganidek, yangi O‘zbekistonning haqiqiy ma’nodagi najoti bo‘lgan, najoti, kelajagi bo‘ladigan avlodsiz.



Nima uchun Prezidentimiz sizning qiyofangizda mamlakatimizning kelajagini va najotini ko‘ryapti?! Bular quruq gap emas. O‘zbekistonning kelajagi, najoti, ko‘rar ko‘zi, eshitar kulog‘i, uradigan yuragi, degan so‘z faqat siz uchun aytilgan va siz bundan keyin qo‘yadigan har bir qadamingizda, ijodiy yo‘lingizda buni isbotlab, xalqimizga o‘z ijod mahsulungizni qadamba-qadam tuhfa qilib borasiz.

6

“BUYUK AJDODLAR MEROSI – UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI” MAVZUSIDAGI FORUM ISHTIROKCHILARI PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVGA MUROJAAT YO‘LLADI

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan 3-4-iyul kunlari “Buyuk ajdodlar merosi — Uchinchi Renessans poydevori” mavzusida respublika olimlari forumi o‘tkazildi.

Anjumanda mamlakatimizdagi yetuk olimlar, fan arboblari, ekspertlar, yosh tadqiqotchilar, diniy soha vakillari, shuningdek, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirok etdi.

Forumda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi mamlakatimiz tarixida madaniy-gumanitar yo‘nalishda birinchi marta amalga oshirilayotgan ulkan va noyob megaloyiha ekani, ushbu Markaz qisqa

muddatda nafaqat yurtimiz, balki dunyo miqyosidagi mashhur davlat va siyosat, din arboblari, taniqli olimlar, keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otayotgani va ular tomonidan yuksak e’tirof etilayotgani alohida ta’kidlandi.

Forum doirasida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy seminarlarda qatnashchilar buyuk ajdodlarimizga munosib bo‘lish, ularning shonli an’analarni bugungi sharoitda izchil davom ettirish, shu asosda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish mamlakatimiz ilmiy va madaniy jamoatchiligi oldidagi egzu va olijanob vazifa ekanini qayd etdilar. Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini samarali tashkil etish, jahon ilm-fani

taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan ajdodlarimiz ilmiy merosini tadqiq qilish kabi masalalar muhokama etilib, taqdimotlar tashkil etildi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar Markaz oldida ulkan va mas’uliyatli vazifalar turganini ta’kidlab, ushbu ilmiy-ma’rifiy maskanni Yangi O‘zbekistonning eng yirik aql markaziga aylantirish bo‘yicha bor kuch va g‘ayratini ishga solishlarini bildirdilar.

Anjuman yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga forum ishtirokchilarining murojaati yo‘llandi.

Quyida mazkur murojaat matni berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga “Buyuk ajdodlar merosi – Uchinchi Renessans poydevori” mavzusidagi respublika olimlari, yoshlar va jamoatchilik vakillari forumi ishtirokchilarining MUROJAATI

Muhtaram Shavkat Miromonovich!

Bugungi kunda Sizning rahbarligingizda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar xalqimiz hayotiga chuqur kirib borib, barcha soha va tarmoqlarda, har bir yurtdoshimiz hayotida aniq natijalar bermoqda.

Sizning tashabbuslaringiz mahsuli bo‘lgan ko‘plab siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy dasturlar va yirik loyihalar jamiyatimiz manzarasini butunlay o‘zgartirib, milliy taraqqiyotimizga yangi, yanada kuchli shijoat bermoqda. Yangi O‘zbekiston g‘oyasi real haqiqatga aylanmoqda. Buni el-yurtimiz ham, xalqaro hamjamiyat ham keng e’tirof etmoqda.

Yaqinda mamlakatimizga tashrif buyurgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterriush janoibi oliylarining bugungi O‘zbekiston taraqqiyoti, uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi birlashtiruvchilik roli haqida bildirgan haqoniy fikrlari ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Yurtimiz tarixida birinchi marta amalga oshirilayotgan noyob megaloyiha sifatida baholanayotgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etish to‘g‘risidagi tashabbusingiz muqaddas dinimizning tinchlik, insonparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalarni ulug‘lash, xalqimizning buyuk tarixi, boy madaniy-ma’rifiy merosini tiklash va dunyoga targ‘ib etish borasidagi doimiy e’tibor va g‘amxo‘rligingizning yuksak amaliy namunasi sifatida, ayniqsa, tahsinga sazovordir. Zero, Markaz faoliyati hozirdanoq xalqimiz va jahon jamoatchiligi o‘rtasida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Qisqa muddatda azim poytaxtimiz Toshkentning qadimiy markazi — Hazrati Imom yodgorlik majmuasiga yaqin hududda Sohbiqiron Amir Temur bobomiz va temuriylar davriga xos me’moriy uslubda, tashqi bezaklari va mahobatli xattotlik

san’ati yozuvlari bilan ochiq kitob tim-solida ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladigan betakror obida — Islom sivilizatsiyasi markazi binosi qad rostlandi.

Siz ta’kidlab aytganingizdek, “boy va chuqur tariximiz, betakror ilmiy-madaniy merosimizni bir joyda mujassam etgan holda, keng ko‘lamda aks ettirish” vazifasi yuklangan Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etib, bu yo‘lda mamlakatimizning ilm va ma’rifat ahlini birlashtirib, ularning samarali faoliyati uchun barcha sharoitlarni yaratib berayotganingiz uchun Sizga chin dildan samimiy tashakkurimizni izhor etamiz.

Bugungi tahlilali davrda, xususan, islom nomi bilan amalga oshirilayotgan xurujlar avj olgan bir sharoitda, ushbu markaz har qanday yot g‘oyalarga qarshi ilmiy raddiyalar orqali javob beradigan yetakchi ilmiy-ma’rifiy maskanlardan biriga aylanadi. Shuningdek, bu yerdagi barcha muzey ekspozitsiyalarida aks etadigan ilmiy-tadqiqot ishlanmalari yoshlarni Yangi O‘zbekistonni barpo etishdek yuksak vazifaga yetaklab, buyuk ajdodlarimiz tarixi haqidagi to‘g‘ri fikrni shakllantirishga xizmat qiladi, deb ishonamiz.

Siz belgilab bergan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida o‘tgan bir oy mobaynida “Islom sivilizatsiyasi markazi: kecha, bugun va kelajakda” shiori ostida Markaz faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy seminarlar tashkil etildi.

Forumda bir qator yangi loyihalar, aniq taklif va tavsiyalar ilgari surildi, taqdimotlar bo‘lib o‘tdi, faoliyatimizni chuqurlashtirish va oldimizga qo‘yilgan yangi vazifalarni bajarishga qaratilgan yakuniy hujjat — “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish belgilab olindi.

Ishonchimiz komil, ushbu Markaz Yangi O‘zbekistonning madaniy-ma’rifiy ustunlaridan biri bo‘ladi va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdagi barcha sa’y-harakatlarimizni

muvofiqlashtirib boradigan yirik fundamental ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida xizmat qiladi.

Biz, Forum ishtirokchilari Islom sivilizatsiyasi markazini ilm va ma’rifat, yangi g‘oyalarni ishlab chiqadigan chinakam aql markaziga aylantirish yo‘lida Sizga yordamchi va ko‘makchi bo‘lib, chin dildan mehnat qilishga, o‘zimizning bor bilim va tajribamiz, iste’dodimizni shunday ulug‘ ishga bag‘ishlashga va’da beramiz.

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Joriy yilning avgust oyida O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyatining Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatiga bag‘ishlangan navbatdagi Kongressini Toshkent va Samarqand shaharlarida o‘tkazish rejalashtirilmoqda.

Xalqimizning boy va bebaho madaniy-ma’rifiy merosini xalqaro miqyosda targ‘ib va tarannum etish bilan birga, Kongressda Islom sivilizatsiyasi markazi kutubxonasi, qo‘lyozmalar fondi va muzeyi faoliyatini zamon talablari asosida tashkil qilish bo‘yicha dunyo ekspertlarining fikrlarini olish imkoniyati yaratiladi.

Islom sivilizatsiyasi markazi kelgusida xalqimiz va, ayniqsa, yoshlarimizning ongu tafakkurini, qalbi va ruhini yuksaltirib, Uchinchi Renessans yunoniyoti etib tarbiyalashga, Yangi O‘zbekistonning o‘ziga xos ma’naviy ko‘zgusi bo‘lib xizmat qiladigan betakror maskaniga aylantirish bo‘yicha Sizning ko‘rsatmalaringiz asosida barcha maqsad va vazifalarni aniq belgilab olganimiz, hech shubhasiz, faoliyatimiz samarasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sizga, hurmatli Prezident, mustahkam sog‘liq, g‘oyat mas’uliyatli va sharaflil faoliyatingizga ulkan kuch-g‘ayrat va yangi yutuqlar tilab qolamiz.

Jonajon Vatanimizning shonu shuhrati, qudrati va salohiyati yanada ziyoda bo‘lsin!

Munosabat



NUFUSI VA NUFUZI OSHAYOTGAN SHHT
mushtarak maqsadlar ro‘yobiga xizmat qiladi

2

Munosabat



Nodirbek RASULOV,
Makroiqtisodiy va hududiy
tadqiqotlar instituti
loyiha rahbari,
iqtisodiyot fanlari doktori

Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida insoniyat manfaatlariga to‘la mos keladigan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish tashabbuskori sifatida namoyon bo‘lmoqda. Hozir O‘zbekistonning tashqi siyosatidagi asosiy tamoyillardan biri Yer yuzining ayrim mintaqalarida yuzaga kelayotgan turli ziddiyatlar va global muammolarni hamjihatlikda hal etish mumkinligini keng targ‘ib qilishdir. Mazkur tamoyillar dunyo xalqlari tengligi, davlatlar suverenitetini hurmat qilish, ichki ishlariga aralashmaslik, ayrim davlatlar gegemonligining oldini olish, siyosiy qarama-qarshilik va ixtilofli raqiblikka yo‘l qo‘ymaslik kabi muhim yo‘nalishlarga asoslanadi. Qayd etilgan tamoyillarni O‘zbekiston xalqaro tashkilotlarning turli minbarlaridan turib, doim ilgari surib kelmoqda.

Hozir dunyodagi geosiyosiy va geoiqtisodiy o‘zgarishlar, yirik davlatlarning manfaati to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar taranglashgan bir pallada vaziyatni yumshatadigan, global muammolarga yechim topadigan, o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradigan, mavjud imkoniyatlarni ishga soladigan xalqaro tashkilotlardan biri, shubhasiz, Shanxay hamkorlik tashkilotidir. Shu bois, u xalqaro siyosatning muhim subyektiga aylanish bilan birga, nufuzli xalqaro tuzilmalar qatoridan munosib o‘rin egalladi. Natijada tashkilotning xalqaro maydonda yuzaga kelayotgan yangi xatar va tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi umumiy salohiyati ortib, a‘zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlik kengayib bormoqda.

O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yuritayotgan oqilona siyosati natijasida keyingi 6-7 yilda e‘tirofqa loyiq qator ishlar qilindi. Xususan,

NUFUSI VA NUFUZI OSHAYOTGAN SHHT mushtarak maqsadlar ro‘yobiga xizmat qiladi

O‘zbekistonning har tomonlama chuqur o‘ylangan tashqi siyosati hamda hamkor mamlakatlar bilan o‘zaro iqtisodiy diplomatiyasi natijalari BMT va ixtisoslashgan tuzilmalari, SHHT, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, IHT, JST, MDH, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va boshqa shunga o‘xshagan xalqaro tashkilotlar hamda moliyaviy institutlar bilan ko‘p tomonlama munosabatlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bu yo‘nalishda erishilgan natijalar ko‘plab xorijiy ekspertlar, mutaxassislar hamda nufuzli tashkilotlar tomonidan keng e‘tirof etilyapti.

mamlakatimizning SHHTga a‘zo davlatlar ishtirokida qabul qilingan mintaqaviy xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamda ijtimoiy-madaniy sohalaridagi kelishuvlar bilan bog‘liq jarayonlarda faol ishtiroki hamda davlatimiz rahbari ilgari surgan qator tashabbuslar hamkor mamlakatlar tomonidan yuqori baholandi. Bunga misol tariqasida keyingi besh yilda O‘zbekiston tomonidan SHHT sammitlarida siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-logistika, innovatsiya va boshqa sohalarida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 50 dan ortiq taklif va tashabbus ilgari surilganini ta’kidlash joiz. Mazkur tashabbuslarning 37 tasi amalga oshirildi, yana 17 tasi ro‘yobga chiqish jarayonida.

SHHT tarixan qisqa muddatda mintaqaviy va global jarayonlarning ta’sirchan ishtirokchisiga aylandi. Xavfsizlik va iqtisodiy o‘shishning muhim omili sifatida esa ushbu tashkilotning barqarorlashtiruvchi rolini alohida qayd etish zarur. Shuning uchun ham kechagina Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan SHHT Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi va “SHHT plus” formatidagi uchrashuvga xalqaro jamoatchilik juda katta qiziqish bildirdi.

Prezidentimiz sammit ishtirokchilarini qutlar ekan, ushbu muhim tadbir xalqaro vaziyat keskinlashayotgan murakkab sharoitda o‘tayotganini qayd etdi. “Bunday murakkab vaziyatda SHHTning asosi bo‘lgan tamoyillarga sodiqligimizni saqlash va yanada mustahkamlash favqulodda muhimdir. Ana shu tamoyillar tufayli Tashkilot bugungi yutuqlarga erishdi, xalqaro masalalarda yuksak nufuz va barqarorlashtiruvchi o‘ringa ega bo‘ldi”, dedi davlatimiz rahbari.

Xalqaro ekspertlar ham mazkur tadbirni yetakchi kuch markazlari ishtirok etgan uchrashuv sifatida e‘tirof etmoqda. Chunki dunyo aholisining deyarli yarmi istiqomat qiladigan yetakchi davlatlar rahbarlarining bir muloqot maydonida to‘planishi, nuqtayi nazarini muhokama qilishi, buning natijasida esa barcha davlatlar manfaati muvozanatini ta’minlaydigan, birgalikdagi konstruktiv qarorlar qabul qilinishi xalqaro darajadagi global muammolar yechimiga xizmat qiladi.

Shuning uchun dunyo hamjamiyatining nigohi va e’tibori Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan SHHT sammitiga qaratildi. Sammitda tashkilotga a‘zo va kuzatuvchi maqomidagi mamlakatlar — Pokiston, Rossiya, Tojikiston,



Xitoy, Eron, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Hindiston, Belarus, Eron, Mo‘g‘uliston va yana Ozarbayjon, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Misr, Qatar, BAA, Armaniston, Bahrayn, Kuvayt kabi 10 dan ortiq davlat rahbarlari, yuqori martabali vakillari ishtirok etdi.

Qozog‘iston 2023-yil iyuldan boshlab bir yil SHHTga raislik qildi. Bu davrda 100 dan ortiq turli tadbir va uchrashuv o‘tkazildi. Xususan, energetika, raqamli texnologiyalar va turizm sohasida yirik forumlar bo‘lib o‘tdi. Hamkorlikning turli yo‘nalishi bo‘yicha 30 dan ortiq hujjat ishlab chiqildi. A‘zo davlatlar tomonidan Qozog‘istonning 2024-yilni SHHTning Ekologiya yili, deb e‘lon qilish tashabbusi bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi.

Jahon ommaviy axborot vositalarida Ostonadagi sammit bo‘yicha berilayotgan axborotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dunyoning ko‘zga ko‘ringan yetakchi siyosatchilari, ko‘pgina xalqaro tashkilotlar,

aksariyat davlat rahbarlari SHHT sammitidan, eng avvalo, Yer yuzidagi tinchlikni barqarorlashtirish, turli global ziddiyatlarga chek qo‘yish, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, ekologik muammolar, oziq-ovqat hamda energetika xavfsizligini ta’minlash, mamlakatlararo savdo-iqtisodiy munosabatlardagi jarayonlarni raqamlashtirish, xalqaro yuk tashuvlardagi to‘siqlarni kamaytirish, muqobil transport koridorlarini rivojlantirish bilan birga, a‘zo davlatlar o‘rtasida investitsiya oqimini samarali boshqarishni soddalashtirish bilan bog‘liq masalalarga yechim topilishidan katta umid qilayotgandi. Sammit yakunlari bo‘yicha Ostona deklaratsiyasi hamda hamkorlikning turli sohalarida sheriklikni yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim ko‘p tomonlama hujjatlar qabul qilingani ishonch o‘zini oqlagan dalolatidir.

Davlatimiz rahbari sammit ishtirokchilarini muloqotni mustahkamlash va ko‘p tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida SHHTning Yaxshi qo‘shnchilik, ishonch va transcagaraviy sheriklik kodeksini qabul qilishga chaqirdi.

Tashkilot doirasida savdo tartib-taomillarini soddalashtirish to‘g‘risidagi bitim, amaldagi raqamli savdo platformalarini integratsiya qilgan holda elektron tijorat sohasida hamkorlik dasturi hamda “SHHT oziq-ovqat xavfsizligi atlas”i qo‘shma elektron platformasini ishlab chiqish tashabbusi ilgari surildi.

Shuningdek, Prezidentimiz “SHHT kelajak texnologiyalari” dasturini ishlab chiqish tashabbusini bildirdi. SHHT mamlakatlari o‘rtasida ijtimoiy rivojlanish va himoya sohasidagi hamkorlik bo‘yicha “yo‘l xaritasi” qabul qilish imkoniyatini ko‘rib chiqishni taklif qildi.

Ostona sammitida yana bir muhim voqea kuzatildi — Belarus Respublikasi SHHTga o‘ninchi a‘zo davlat sifatida qabul qilindi.

Albatta, bunday darajadagi uchrashuvlar va unda O‘zbekistonning faol ishtiroki mintaqadagi tinchlik, hamkorlik va taraqqiyot yo‘lida birlashish bo‘yicha o‘z tashabbuslarini ilgari surish, bu borada turli konseptual dastur, kelishuv va qarorlar samaradorligini ta’minlashda muhim. Shu bilan birga, a‘zo davlatlar o‘rtasida xavfsizlik sohasidagi aloqalarni yanada kengaytirish, transport va iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, SHHTning xalqaro maydondagi o‘mini mustahkamlash, rivojlanishning yangi yo‘l va nuqtalarini izlash kabi ko‘plab muhim masalalarga yechim topishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur tadbir SHHTni 2040-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tayyorlash hamda iqtisodiyot, savdo va investitsiya sohasidagi hamkorlikning amaliy ta’sirchanligini oshirish kabi muhim tashabbuslarni amalga oshirishga zamin yaratadi.

Keyingi yillarda SHHT nufuzi ortib borishi, unda mamlakatimizning faol ishtiroki, birinchidan, yaqin qo‘shni hamda manfaatdor davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, mintaqada xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq masalalar hal etiladi, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan turli nizolarning oldi olinadi.

Uchinchidan, a‘zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik mustahkamlanishi uzoq yillardan beri tarixan bir-biriga yaqin davlatlarning mushtarak maqsadlarini ro‘yobga chiqarishga zamin yaratadi. Bu esa, albatta, tashkilotga a‘zo rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanish, aholi turmush darajasini yaxshilash, yangi ish o‘rinlari yaratish, foydalanilmayotgan salohiyatni ishga tushirish hamda yirik investitsiyaviy loyihalarini amalga oshirishga asos bo‘ladi.

Irrigatsiya

Suv xo‘jaligi vazirligi mas‘ullari tomonidan Qoraqalpog‘istondagi olis va suv ta‘minoti og‘ir bo‘lgan 35 ta hudud ro‘yxati shakllantirilib, ularga suv yetkazish alohida nazoratga olingan. Buning natijasida ayni vaqtda olis joylardagi aholi tomonidan suv yetkazib berilmoqda.

Bo‘zatov tumanidagi “Erkindaryo chorvasi” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ekin maydonida mobil ko‘chma yomg‘irlatib sug‘orish tizimi qo‘llanmoqda. Ushbu muqobil tizim orqali an‘anaviy sug‘orishga nisbatan 40-50 foizgacha suv tejaldi. Fermerlar ushbu tejamkor texnologiyalarni dalalarida joriy etsa, Prezidentimizning 2022-

yil 1-martdagi “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida subsidiya olishi mumkin.

— Qoraqalpog‘istonda tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalaridan tashqari diskret sug‘orish, egiluvchan quvur va egatga plyonka to‘shab sug‘orish kabi suv tejovchi texnologiyalardan keng foydalanilmoqda, — deydi Suv xo‘jaligi vazirligi bosh mutaxassisi Abu Qidirbayev. — Har payshanba kuni suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yi-

cha qilinayotgan ishlar yuzasidan amaliy va ko‘rgazmali seminarlar o‘tkazib, yangi texnologiyalar haqida fermerlarga ma’lumot berib kelyapmiz. Bo‘zatov tumanidagi g‘altakli purkagich sug‘orish mashinasi ham ko‘plab fermerlarimizni qiziqtirdi. U qulay harakatlanishi, mehnat va vaqtni tejashi bilan qator afzalliklarga ega.

Hozirgacha Kegeyli, Qorao‘zak, Taxtako‘pir, Bo‘zatov, Taxiotosh, Xo‘jayli, Qonliko‘l, Mo‘ynol va Amudaryo tumanlariga 20 ta mobil sug‘orish mashinasi olib kelinib, foydalanilmoqda.

— Joriy yil 60 gektar yerga paxta ekdik, 15 gektarini tomchilatib sug‘oryapmiz, — deydi “Kamolov Gulmirza” fermer xo‘jaligi rahbari Akbarjon Kamolov. — Tomchilatib sug‘orishning afzalliklari ko‘p. Birinchidan, suv tejalsa, ikkinchidan, mo‘l daromad olishga imkon beradi. Kelgusi yili 60 gektarning hammasida tomchilatib sug‘orish texnologiyalaridan foydalanmoqchimiz.

Suv yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida joriy yil suv xo‘jaligida “kanallarni betonlash bo‘yicha zarbdor yil” e‘lon qilingan edi. Sug‘orish mavsumigacha Qoraqalpog‘istondagi kanal va ichki ariqlarni betonlash ishlari uyushqoqlik bilan bajarildi. Ayni kunda ham bu ishlar izchil davom ettirilmoqda. Chimboy tumani “Tazg‘ara” ovul fuqarolar yig‘ini hududidagi Gone shohariq ichki kanalidagi ishlar buning yorqin dalilidir.



HAR QATRASI QADRLI



— Keyingi paytlarda mazkur suv tarmog‘ida suvdan foydalanish koeffitsiyenti keskin pasayib, hududdagi suv iste’molchilarining haqli e‘tirozlariga sabab bo‘layotgan edi, — deydi Chimboy tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori Aydarbek Qadirbayev. — Sug‘orish tarmog‘ining umumiy uzunligi 7 kilometr. Yaqinda Qoraqalpog‘iston Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan ariqning 400 metr qismini betonlash belgilanib, hashar yo‘li bilan ishlar boshlab yuborildi. Qisqa muddatda suv tarmog‘ining 200 metrga

yaqin qismi betonlandi va bu ishlar davom etmoqda.

E’tiborlisi, Gone shohariq ichki kanalida betonlash ishlari bajarilgach, hududdagi fermer xo‘jaliklari va aholi tomonlari suv ta‘minoti yaxshilanadi. Tumandagi suv xo‘jaligi mutaxassislari ma’lumotiga ko‘ra, suv tarmog‘i betonlangandan so‘ng suv yo‘qotishlar kamayadi, foydalanish koeffitsiyenti oshadi.

Taxtako‘pir tumanidagi KS-4 tumanlararo kollektori 1971-yilda foydalanishga topshirilgan. Uning umumiy uzunligi 116

kilometr, loyihaviy suv o‘tkazish imkoniyati soniyasiga 18 metr kubni tashkil etadi.

So‘nggi yillarda kollektorning yon qiyaliklari piriilib, irrigatsiyatarmog‘i xarobahvolga kelib qolgandi. “Ellikqal” amassussvupudrat” korxonasi tomonidan ushbu kollektorning joriy yil davomida 11 kilometr qismini rekonstruksiya qilish belgilangan. Bugungacha 7 kilometrda qazish ishlari bajarilgan. Shu bilan birga, kollektorni rekonstruksiya qilish doirasida yer osti sızot suvini nazorat qilish imkonini beruvchi “Dayver” qurilmalari ham o‘rnatilmoqda.

Kollektor rekonstruksiya qilingach, hududdagi 7432 gektar yerning meliorativ holati yaxshilanadi. Shu bilan birga, 620 gektar maydonning yer osti sızot suvi me‘yoriy darajaga tushirilib, 1167,5 gektar yerning meliorativ holati yaxshilanadi.

“Qoraqalpog‘istonsuvqurilishinvest” davlat muassasasi jamoasi Beruniy hamkorligi Maxtumquli-1 xo‘jaliklararo kollektorida rekonstruksiya ishlarni bajarmoqda.

— Keyingi yillarda turli suv o‘tlari o‘shishi natijasida kollektorning sızot suvini chiqarib yuborish imkoniyati pasaygan va hududdagi ekin maydonlarining meliorativ holati yomonlashishiga sabab bo‘layotgan edi, — deydi “Qoraqalpog‘istonsuvqurilishinvest” davlat muassasasi yetakchi mutaxassisi Bulat Muratbayev. — Ayni paytda mazkur kollektorning belgilangan qismida rekonstruksiya ishlari bajarilmoqda.

Bugun suvdan oqilona foydalanish va tejash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar natijasi dehqonlarimiz yetishtirayotgan mo‘l hosilda namoyon bo‘lmoqda. Demak, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy qilish farovonlik va to‘kin-sochinlik kafolatidir.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

TEMIR INTIZOMGA
ASOSLANGAN IJRO INTIZOMI —
SAMARADORLIKNING BOSH OMILIMurotjon AZIMOV,
Qashqadaryo viloyati hokimi

Boshlanishi 1-betda

Aniq maqsad va vazifalar

Qonunchilik hujjatlari ijrosini tashkil etish va samarali monitoring tizimini yaratish hamda belgilangan maqsadlarga erishish bo'yicha barcha darajadagi rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish maqsadida Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilangani ham davlat idoralari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash imkonini berdi. Jumladan, hujjat bilan har bir xodimning **aniq maqsad va vazifalari** belgilab qo'yildi, bu esa ish jarayonini samarali va tezkor amalga oshirishga yordam bermoqda.

Mazkur farmon bilan ijro intizomini mustahkamlash, yagona va uzluksiz tizimni tashkil qilish bo'yicha davlat boshqaruvi organlari rahbarlari shaxsan e'tibor qaratishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Yaqin yillargacha davlat tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning qog'ozbozlikdan boshi chiqmas edi. Davlatimiz rahbarining 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomini idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan barcha qog'ozbozlikka barham berildi. Bu esa davlat xizmatchilarining qog'oz to'ldirishga ketadigan vaqtini tejash orqali o'z faoliyati bilan mukammal shug'ullanishiga zamin yaratdi. Har bir xodimning mas'uliyat doirasi aniq belgilangani tufayli vazifalar to'g'ri taqsimlandi, vaqt tejaldi, samaradorlik va mehnat unumdorligi oshdi. Murojaatlarning o'z vaqtida va tizimli tarzda hal etilishi uchun mustahkam zamin yaratildi.

Nazorat, baholash va
motivatsiya

Ijro intizomi ish jarayonini **nazorat qilish** va **baholash imkonini** beradi, bu esa kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va tuzatish, degani.

Intizomli muhitda ishchilar o'z vazifalarini bajarishda yuqori darajada javobgarlikni his qiladi. Bu bilan ularning **motivatsiyasi oshadi**. Ijro intizomi samaradorlikni oshirish uchun zarur shart-

sharoit yaratdi. Buning natijasida tashkilotning umumiy ishlari yaxшилandi hamda maqsadlarga tezroq va samaraliroq erishilmoqda. Shuningdek, tashkilot ichidagi harakatlar muvofiqlashtirilgani umumiy maqsadlarga erishishda katta ahamiyatga ega.

Topshiriq va ijro

Prezidentimiz rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni ijro intizomini mustahkamlashga bag'ishlab o'tkazilgan videosektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash hamda davlatimiz rahbarining bu boradagi qat'iy siyosatini samarali ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratyapmiz.

Xususan, bu kechiktirib bo'lmaz topshiriq va vazifalar ijrosi yuzasidan hokimlik soati yig'ilishlarida mahalliy hokimliklar rahbariyatining ijro intizomini mustahkamlash borasidagi shaxsiy mas'uliyati o'z'risidagi hisobotlari eshitib borilmoqda.

Muhokamalar jarayonida asosiy urg'u hokimliklarda joriy qilingan ijro intizomi va mavjud kamchiliklarni tanqidiy tahlil qilish hamda mazkur tizimni yanada takomillashtirish masalalariga qaratilgan.

Shu bois, tizimda topshiriqlar ijro holati viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo'limi tomonidan kunbay tahlil etilib, tahliliy hujjatlar va ijro muddati kechikayotgan topshiriqlarning elektron ro'yxati viloyat boshqarma va tashkilotlariga, tuman (shahar) hokimlariga taqdim qilinadi.

Natijada viloyat hokimligi tomonidan 2024-yilning o'tgan davrida davlatimiz rahbarining jami 566 ta topshirig'i ijrosi to'liq va sifati bajarilishiga erishildi.

Ijro intizomi bo'yicha viloyat hokimligida o'rnatilgan qat'iy tartib va nazoratga ko'ra, topshiriqlarning ijro muddati kechikib yoki sifatsiz bajarilgan taqdirda tegishli intizomiy choralar ko'rib borilmoqda.

Jumladan, birgina joriy yilning o'tgan davrida topshiriqlar ijrosini ta'minlashda Qashqadaryo viloyati hokimligi tizimidagi mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan 164 mas'ulga nisbatan tegishli intizomiy choralar qo'llangani ham so'zimiz isbotidir.

Ijro intizomi bo'yicha viloyat hokimligida o'rnatilgan qat'iy tartib va nazoratga ko'ra, topshiriqlarning ijro muddati kechikib yoki sifatsiz bajarilgan taqdirda tegishli intizomiy choralar ko'rib borilmoqda.

Voha iqtisodiyoti va turizm
imkoniyati yuksalmoqda

Yurtimizdagi islohotlar samarasida vohamiz iqtisodiy salohiyati yil sayin yuksalmoqda. O'tgan davrda viloyatning har bir fuqarosi uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma, nazorkali tibbiy xizmat ko'rsatish,

sifatlari ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berish yo'lida salmoqli ishlar qilindi. Xususan, viloyatda yangi ishga tushirilgan loyihalar natijasida mehnat bozori kengaydi. 2023-yilda sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarida yuqori o'sish natijalari qayd etildi va 2024-yilda bu natijalarni yangi bosqichga ko'tarish aniq raqamlar bilan belgilab qo'yildi.

Bu yil 65 loyiha doirasida 650,2 million dollarlik to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyani o'zlashtirish belgilangan. Lekin 2024-yilda **1 milliard 71 million dollarlik investitsiya** jalb qilish bo'yicha tegishli ishlar bajarilmoqda. Joriy yilning yanvar-may oylarida 258,2 million dollarlik xorijiy investitsiya o'zlashtirildi va hisobot davri uchun belgilangan reja (256 million dollar) 101 foiz bajarildi.

Davlat va hududiy investitsiya dasturi doirasida qiymati **1,9 milliard dollarlik 637 loyiha** ishga tushirilishi hisobiga **20 mingga yaqin yangi ish o'rni** yaratish belgilangan. Joriy yilning dastlabki besh oyida qiymati **84,2 million dollarlik 168 loyiha** ishga tushirilib, **1668 ta yangi ish o'rni yaratildi**. Shuningdek, loyihabay o'rganishlar natijasida qiymati 43,4 million dollarlik 60 loyiha

“Davlat va hududiy investitsiya dasturi doirasida qiymati 1,9 milliard dollarlik 637 loyiha ishga tushirilishi hisobiga 20 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratish belgilangan. Joriy yilning dastlabki besh oyida qiymati 84,2 million dollarlik 168 loyiha ishga tushirilib, 1668 ta yangi ish o'rni yaratildi.”

muddatidan oldin ishga tushirildi va 598 ta ish o'rni tashkil etildi.

Viloyatda energetika yo'nalishida ham ishlar samarali yo'lga qo'yilgan. Xususan, Nishonda Xitoyning "China Gezhouba Group Investment Company Co. LTD" korxonasi tomonidan **qiymati 500 million dollarlik** quvosh fotoelektr stansiyasi (FES) qurish loyihasining dastlabki bosqichida **200 MVt**, keyingi bosqichda **300 MVt** quvvat ishga tushirildi.

Shu o'rinda Qashqadaryo viloyatida turizm sohasidagi yirik investitsiya loyihalarini alohida qayd etish joiz.

Prezidentimizning 2023-yil 28-noyabrda "Qashqadaryo viloyatining tog'-rekreatsiya hududlarida zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilab berilgan **240 gektarli "Shahrisabz" turistik markazi** hududida turizm va yondosh yo'nalishlardagi infratuzilma obyektlari qurish bo'yicha master reja ishlab chiqildi.

Hozir umumiy 1050 o'ranga mo'ljallangan 2 ta 4 yulduzli mehmonxona, xostel hamda savdo-ko'ngilochar markaz barpo etilmoqda.

Shu bilan birga, umumiy uzunligi 1800 metrlari dor yo'li, avtoturargoh va restoran qurilmoqda.

"Miraki", Amir Temur va "Uloch" MFYlarda 31 ta lotni o'zaro bog'lovchi, piyodalar va velosipedchilar uchun 10 kilometrli salomatlik yo'lagini qurish ishlari boshlandi. Shu yo'lakning o'zi 200 dan ortiq xizmat ko'rsatish nuqtasi va 400 ga yaqin ish o'rni yaratish imkonini bermoqda.

Shahrisabz tumanidagi "Hisorak" suv ombori hududida 2 ta 20 o'rinni katerda sayohat xizmati tashkil etilib, yangi turizm marshrut tashkil etildi. Hozir gidrotsikllarda sayohat qilish va rafting sport turi bilan shug'ullanishni yo'lga qo'yish choralari ko'riyapti.

2023-yil 4-6-oktabrda Rossiyaning Qozon shahrida o'tkazilgan "Kazan EKSP" tadbirlari doirasida Shahrisabz tumanida umum mavsumiy dam olish maskanini tashkil etish loyihasi bo'yicha muhim kelishuvlarga erishilgandi.

Xorijiy hamkorlar bilan birga hududning master rejasini ishlab chiqildi. Uni ishlab chiqish jarayonida Avstriyaning Doppel Mayer kompaniyasi hamda Ispaniya, Polsha, Slovakiya va Rossiya mutaxassislari bir necha marotaba joyiga chiqqan holda hududning imkoniyatlarini o'rgandi.

Master reja asosan, umumiy 2,9 ming gektar tog'li hududda 200 kilometrli **tog'chang'i yo'laklari**, 13,9 kilometrli har xil turdagi **dor yo'li**, 160 ming 400 metr kvadrat maydonda bino-inshootlar qurish orqali bir vaqtning o'zida **13 ming 884 kishini sig'dira** oladigan **yotoq joylar barpo etiladi**. Shu kompleksning o'zi bir yilda **1 million turist** qabul qiladi.

Ta'limga sarmoya —
kelajakka poydevor

Viloyatimizda 2022/2023 o'quv yilidan boshlab mahalliy byudjetdan 1 milliard so'm mablag' ajratgan holda "Xorijiy til bilan atlag yo'l" loyihasi yo'lga qo'yildi va qashqadaryolik 500 yoshning 6 oy o'quv markazlarida ingliz tili va AT sohasi bo'yicha o'qish xarajati qoplab berildi. Bu bilan yuzlab, minglab o'g'il-qizlarimizga eng zamonaviy bilimlar egallash uchun imkoniyat yaratildi. Ular endi o'z kelajagini qurish bo'yicha aniq maqsadga ega va shu yo'nalishda qo'llab-quvvatlovga erishganidan mamnun.

Bundan tashqari, oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan yoshlarning tanlagan mutaxassislilari bo'yicha chuqur bilim olishini rag'batlantirish maqsadida ilk bor Qashqadaryoda **"Viloyat hokimi stipendiyasi"** joriy etildi. Unga nomzodlarni saralab olishga oid nizom asosida 14 g'olibga har oy bazaviy hisoblash miqdorining 3 barobari miqdorida qo'shimcha stipendiya to'lanadi.

Mana, ikki yildirki, **11-sinf o'quvchilari o'rtasida** 10 ta fan bo'yicha **"Viloyat hokimi"** olimpiadasi yangicha tizimda o'tkazib kelinmoqda. Olimpiadaning joriy yilgi tanlovlarida bitiruvchi sinflarning **15 mingdan ortiq** o'quvchisi ishtirok etdi va ular orasidan **30 o'g'il-qiz** g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Quvonarlisi, **fizika, kimyo va biologiya** fanlari bo'yicha **1-, 2-, 3-o'rinlarni** egallagan **9 yosh** Qarshi davlat universitetiga **talabalikka imtihonsiz qabul qilindi**.

Albatta, bu kabi muhim sa'y-harakatlar natijadorligi, o'g'il-qizlarimizning bilim darajasi yuqori bo'lishi o'qituvchilarning salohiyati bilan ham bevosita bog'liq. 2023-yilda **1 200 o'qituvchi** ta'lim yo'nalishidagi turli **grant va sertifikatlar** sohibi bo'ldi. Joriy yilda ham ularning xorijda tajriba almashish, nufuzli ta'lim dargohlari, oliy ta'lim tashkilotlarida malaka oshirish harakatlari qo'llab-quvvatlanadi. Rivojlangan davlatlar bilan ta'lim sohasidagi hamkorlik yangi bosqichga olib chiqildi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 24-25-oktabr kunlari viloyatimizga tashrif



doirasida 2024-yil — **Qashqadaryoda sifati ta'lim va tibbiyotni rivojlantirish yili** deb e'lon qilingan edi. Prezidentimizning tashrif doirasida belgilab bergan topshiriqlaridan kelib chiqib, o'tgan davrda har ikki yo'nalishni zamon talablari asosida rivojlantirish, aholiga sifatlari tibbiy xizmat ko'rsatish va ayniqsa, yoshlarga puxta bilim berish choralari ko'rilmogda.

Bugunga kelib ana shu sa'y-harakatlarining dastlabki natijalari ko'rina boshladi. Jumladan, viloyatimiz maktab ta'limi tizimida qo'lga kiritilgan bir qancha quvonchli natijalar bilan faxrlanamiz.

Xususan, joriy yilgi xalqaro olimpiadalarda 3 o'quvchimiz 7 ta medalga munosib ko'rildi. Ayniqsa, matematika fani bo'yicha xalqaro olimpiadalarda **Kitob tumanidagi 96-maktabning 11-sinf** o'quvchisi **Madina Suyunovaning 3 ta, Mirshirkor tumanidagi 21-maktabning 10-sinf** o'quvchisi **Behruzbek Elmurodovning 2 ta** medalni qo'lga kiritgani barchamizga g'urur bag'ishlaydi.

Yurtimizda yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Kitob o'qib, o'z iqtidorini namoyon qilgan faol yoshlar munosib taqdirlanmoqda.

Jumladan, **"Yosh kitobxon"** tanlovining respublika bosqichida **15-19 yosh** toifasi bo'yicha **Kosondagi 19-maktabning 11-sinf** o'quvchisi **Mironshoh Nurmatov** g'oliblikni qo'lga kiritib, **Prezident sovg'asi** — "Cobalt" avtomobili sohibi bo'ldi.

Tibbiyotdagi islohotlar —
inson qadri uchun

Prezidentimiz viloyatimizga tashrif chog'ida **"Qashqadaryoda barcha sohalarda vaziyat tubdan o'zgarishi shart, buning uchun viloyatda hamma imkoniyat bor. Hamma uyg'onishi kerak"**, degan edi.

Alohida ko'rsatilgan ikki sohada esa keyingi yillarda qo'lga kiritilgan yutuqlar salmoqli. Sog'liqni saqlash tizimi haqida to'xtalsam. Viloyatimiz shifokorlari **Turkiya, Hindiston, Rossiya** kabi davlatlar tibbiyotchilari bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Hududda nufuzli klinika va ilmiy-tadqiqot markazlari filiallari ochildi. Sohani chuqur isloh qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasida birgina o'tgan yili viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi va Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Qashqadaryo filialida respublika mutaxassislari bilan birgalikda **10 bemorda buyrak ko'chirib o'tkazish** amaliyoti bajarildi.

Ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari viloyat filiallarida **134** bemorga endoprotez qo'yish, **94 nafarida** neyrojarrohlik, **240 nafarida** oshqozon-hazm tizimi, **33 nafarida** urologik, **791 nafarida** oftalmologik, **2133 nafarida** kardiologik yo'nalishida yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.

Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy markazi va Respublika endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qashqadaryo filiallari yaqinida Respublika ixtisoslashtirilgan Ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hududiy filiali yangidan barpo etilgan zamonaviy binoda ish boshladi.

Barcha bo'limlari eng so'nggi rusumdagi ilg'or texnika va uskunalar bilan jihozlangan. Viloyatlar miqyosida hali bunday ulkan va zamonaviy tibbiyot markazi yo'q, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Faqat yuqori texnologik tibbiy jihozlarning o'zi bilangina ish bitmaydi. Ularni ishlatadigan, amaliyotda mahorat bilan qo'llaydigan tibbiy mutaxassislar kerak. Shunga ko'ra, o'tgan yilda viloyat mahalliy byudjeti mablag'i hisobidan **52 nafar** tibbiyot xodimi o'z yo'nalishi bo'yicha xorijda malaka oshirishga yuborildi. Joriy yilda yanada ko'p shifokorni tibbiyot sohasi rivojlangan mamlakatlarga tajriba

almashish uchun yuborishni rejalashtirganmiz.

Barcha darajadagi tibbiyot muassasalarini ilg'or texnika va uskunalar bilan ta'minlash diqqat-e'tiborimizda turibdi. Misol uchun, hamma tumanida shoshilinch qabul bo'limi "Emergency Department" ochildi.

Shahrisabz shahri, G'uzor va Kasbi tumanlarida "Qo'shma shikastlanishlar va o'tkir yurak qon-tomir kasalliklari" markazlari tashkil qilindi va 33 milliard so'mlik tibbiy uskunalar bilan jihozlandi.

Viloyatning tibbiyot sohasidagi eng katta yutug'i sifatida shuni qayd etish joizki, Kitob tumanidagi klinikalarning birida **robot jarroh yordamida murakkab endourologik operatsiya amalga oshirildi**.

Robot jarroh Yordamida jarrohlik amaliyoti o'tkazish ishlari **Markaziy Osiyoda ilk bor**, bu ham bo'lsa, Qashqadaryoning Kitob tumanida amalga oshirildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, **bugungi O'zbekiston — kechagi O'zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas**.

Bir so'z bilan aytganda, maqsadimiz inson qadriini ulg'ush.

Buning uchun bish adolat, tenglik va erkinlik tamoyillariga amal qilishimiz, inson huquqlarini hurmat qilishimiz va har bir shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishimiz lozim.

Shu bilan birga, ta'lim-tarbiya tizimini yuksaltirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va fuqarolar farovon hayot kechirishi uchun zarur sharoit yaratish ham asosiy vazifalarimizdan biridir.



Osyotrni to‘g‘ridan to‘g‘ri taomga ishlatishdan tashqari, qayta ishlab, tuzlangan, dudlangan, muzlatilgan yoki konserva holida iste‘mol qilish ham mumkin. Ayrim davlatlarda esa osyotr balig‘ining terisidan charm sifatida foydalaniladi. Baliqning tangachalari bo‘lmagan, juda chiroyli terisidan asosan, ayollar sumkasi tikiladi. Kelgusida yurtimizda bu yo‘nalishda ham ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yib, hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish mumkin.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Mahalliy lashtirish

O‘ZIMIZNING QORA IKRA

O‘zbekiston akvakulturasida yangi yo‘nalish



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bundan ikki yil oldin Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining uzoq muddatli ilmiy izlanish va tajribalaridan so‘ng sovuq suv balig‘i — osyotrni O‘zbekiston sharoitida to‘liq iqlimlashtirishga erishilgani haqida yozgan edik. Oradan qisqa vaqt o‘tib, ushbu yo‘nalishda yana bir katta yangilik qilindi. Endi mamlakatimizda mahalliy lashtirilgan osyotr balig‘idan qimmatbaho qora ikra olinayapti. Bu boradagi ilk tajriba Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanidagi “Xorrot Fish House” unitar korxonasida yo‘lga qo‘yildi.

Korxona davlat-xususiy sherikligi asosida tashkil etilgan bo‘lib, unda Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan mahalliy lashtirilgan osyotr ona baliqlaridan naslli urug‘ olish va sanoat usulida yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Davlat va xususiy korxona hamkorligida intensiv usulda baliq yetishtirish, amaliyotda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga qaratilgan mazkur loyiha yurtimizda yagonadir. Bu jarayonda ilmiy izlanishlar tijoriylashtirilib, muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Sovuq suv iqlimiga moslashgan osyotr balig‘ini yurtimiz sharoitida sanoat usulida yetishtirish haqiqatan katta ilmiy natijalardan biri. Olimlar bu tajriba ustida o‘n yildan

oshiroq vaqt ishladi. 2009-yilda institutga chavoq holida olib kelingan qimmatbaho sibir osyotrini mahalliy lashtirish ishlari oson kechmadi. Ilmiy izlanishlar natijasida ushbu baliq turidan mahalliy sharoitda sun‘iy urchitib urug‘lik olindi va chavoq yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Yangi turni mahalliy sharoitda sun‘iy ko‘paytirishning ilmiy asoslari ishlab chiqilib, oziqlantirish va o‘stirishning biologik hamda texnologik tamoyillari o‘zlashtirildi. Ana endi osyotmning nafaqat go‘shiti, balki qora ikراسi ham olinib, xorijga eksporti yo‘lga qo‘yilayapti.

— Osyotr chuchuk suvli daryo va dengizlarda yashaydigan baliq turi va u asosan, qimmatbaho qora ikراسi uchun yetishtiriladi, — deydi Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori Abdulla Qurbonov. — Ammo biz qora ikra olishdan oldin ushbu baliq turini, avvalo, iqlim sharoitimizga moslashtirishimiz kerak edi. Chunki sibir osyotri mahalliy ixtifoanumizda mavjud bo‘lmagan, mutlaqo yangi tur bo‘lish bilan birga, asrlar davomida Sibir daryolari hamda o‘sha hudud iqlimi va suviga moslashgan endemik turdir. Uni mahalliy iqlimga moslashtirish maqsadida yurtimizga ilk bor 2009-yilda olib kelindi va uzoq muddat iqlimlashtirish, o‘stirish, oziqlantirish, turli sharoitlarga chidamliligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Bunga taxminan 10-12 yil ketdi. Ko‘pchilik buni uzoq muddat deb o‘ylaydi, ammo har qanday baliq turini voyaga yetkazib, urug‘lik olib, keyingi bosqichga o‘tilishi uchun shunday ko‘p yillar kerak.

Olimning aytishicha, reproduktiv xususiyatlarini saqlab qolishi uchun baliqlarga qulay muhit yaratib berilishi kerak. Vaholanki, bizning iqlim sovuq hududlarimizdan farq qiladi. Yoz oylari issiq, qishda esa suv deyarli muzlab qoladi. Shu bois, osyotr balig‘ini mutlaqo yangi hududga olib kelib boqish oson kechmadi va bu tadqiqotlarning uzoq davom etishiga sabab bo‘ldi. Asosiy qiyinchilik yoz oylarida suvning kerakli haroratini ta‘minlash hamda baliqlarni mahalliy ozuqa bazasiga moslashtirishda



kuzatildi. Osyotr ochiq suv havzalarida ham yetishtirildi, ammo bunda yashab qolish darajasi pastligi ko‘rindi. Mazkur turni sun‘iy suv havzalarida, intensiv usulda yetishtirish eng maqbul usul ekan. Bu boradagi barcha tahlillar bo‘yicha tavsiyanomalar ishlab chiqildi. Uzoq yillik tadqiqotlardan so‘ng osyotr balig‘ini yurtimizda samarali yetishtirish mumkin, degan xulosaga kelindi. Oxirgi yillarda esa baliqni sanoat usulida yetishtirish ommalashyapti.

Jahon bozoridagi qimmatbaho mahsulot

Osyotr balig‘i yaxshi sharoitda tez semiradi va go‘shiti mazali bo‘lgani sababli eng xaridorigir turlardan. Jahonda ushbu baliqni yetishtirish bo‘yicha yillik o‘rtacha hajm 100 ming tonnadan yuqori. 40 dan ziyod mamlakat osyotr balig‘i yetishtirish bilan shug‘ullanib keladi. Ular orasida Xitoy, Rossiya va uzoq Sharq davlatlari ancha ilg‘or. O‘tgan asrning 80-90-yillaridayoq jahon mamlakatlarida osyotr

balig‘ini mahalliy lashtirish texnologiyasini ishlab chiqish boshlangan.

Bu turdagi baliq hajmi katta bo‘lgani bois, qayta ishlash imkoniyati yuqori. Ayniqsa, osyotr balig‘idan olinadigan qora ikra jahon bozorida qimmat baholanadi. Chet elliklar uni tansiq yegulik sifatida xush ko‘radi. Shu bois, yurtimizda osyotmni sanoat usulida yetishtirish texnologiyasi ancha rivojlanib, baliqchilik xo‘jaliklarida tatbiq etila boshlagach, undan qora ikra olish yo‘lga qo‘yilayapti. Ya‘ni sovuq suv balig‘ini yetishtirishni o‘zlashtirib olgan yurtidoshlarimiz undan qimmatbaho qora ikra olishni ham uddalayapti.

“Xorrot Fish House” baliqchilik xo‘jaligi bu borada birinchilardan bo‘ldi. 2021-yilda tashkil etilgan xo‘jalikda asosan, karp, sazan, do‘ngpeshona, oq amur baliqlari yetishtirib kelingan. Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgach, xo‘jalikka institutda 7-8 yil davomida voyaga yetkazilgan, har biri 10-12 kilogramm baliqlar olib kelindi. Bu yerda ular sanoat usulida ko‘paytirilib, voyaga yetgan baliqlarning har biridan

Bir hudud – bir mahsulot

VODILLIKLARNI BOY QILAYOTGAN SOHA

Farg‘ona tumanidagi Vodil qishlog‘ida malina yig‘im-terim mavsumi qizg‘in pallasga kirdi. Mahsulotning bozori chaqqon. Bugun bir kilo malina ulgurji narxda 20-25 ming so‘mdan sotilmoqda. Bir sotix malinazordan o‘rtacha hisobda 100-120 kilogacha hosil terib olinishi hisobga olinsa, daromad cho‘g‘ini chamalab olish qiyin emas.

Malina salqin havo va nam tuproqda yaxshi rivojlanadi. So‘lim Vodilning musaffo ob-havosi ekinlar rivoji va hosildorligini oshirishda qulay. Shu bois, undan bir yilda ikki marta hosil terib olinmoqda. O‘simlik nafaqat mo‘may daromad manbai, balki shifobaxsh xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Mevasi immunitetni mustahkamlashga yordam beradi, keksayishni sekinlashtiradi, yog‘ni eritadi, ovqat hazm qilishni me‘yorlashtiradi. Shamollash, saraton yuzaga kelishining oldini oladi, qondagi qand miqdorini nazorat qiladi.

— Bugun tumanimizdagi 5660 xonadonning 198 gektar tomorqasida malina yetishtirilmoqda, — deydi Farg‘ona tumani fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bosh mutaxassisi Islomjon Mo‘minov. — Bundan tashqari, “Bir hudud — bir mahsulot” tamoyili asosida Vodil, Yuqori Vodil, Birlik massivi hududidagi samarasiz foydalanilayotgan 285 gektar bog‘ qator oralarida yangi malinazorlar tashkil etilmoqda. Buning hisobida malinazorlar ko‘lami 621 gektarga yetdi. O‘tgan yil sarhisobiga ko‘ra, aholi tomorqasida yetishtirilgan 500 tonnadan ortiq mahsulot Qozog‘iston, Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Tojikistonga eksport qilingan. Joriy mavsumda bu boradagi ko‘rsatkichni 1000 tonnadan oshirish ko‘zda tutilayapti. Buning uchun sharoit va imkoniyat yetarli. Shu kunga qadar aholining yana 171 gektar tomorqasi malina yetishtirishga ixtisoslashtirilmoqda. Bu har yili o‘rtacha hisobda 5 ming tonnadan ortiq sarxil meva yetishtirish imkonini beradi.

“Obod” mahalla fuqarolar yig‘inida yashayotgan Elyor Nishonov malinachilikda ko‘pga namuna bo‘lib keladi. U 10 sotix tomorqasiga ekanligi nihollardan mo‘l hosil ko‘tardi. Birinchi mavsumning o‘zida bir tonnadan ortiq meva terib soldi.

— Birinchi hosildan 25 million so‘mdan ortiq daromad oldik, — deydi tomorqa yumushlari bilan andamon tomorqachi. — Kuzgi hosil ham mo‘l va sifatlil bo‘lishi uchun hozirdan taraddud ko‘ryapmiz. Ekin tagini yumshatish, mahalliy o‘g‘it bilan oziqlantirish, suvga qondirish mavsumning muhim yumushlaridan.



“Bo‘ston” mahalla fuqarolar yig‘inining asosiy drayveri — malinachilik. Bu ish bilan mashg‘ul bo‘layotgan oilalar halol mehnat

ortidan muqim daromad manbaiga ega bo‘lmoqda. Iyun malina g‘arq pishgan palla. Shu bois, yig‘im-terim avjida.

— Mahallamiz ishsizlikdan xoli hudud, — deydi mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Qodirjon Dadajonov. — 743 xonadonning hammasida malina yetishtiriladi. Yig‘im-terim jarayonida ishchi kuchi yetishmay qolgani bois, qo‘shni hududlardan qo‘shimcha ishchi jalb etildi. Sababi, keyingi yili malina yetishtirish bilan band aholi qatlami teng barobar ko‘paydi. Mahsulot qancha ko‘p bo‘lsa, sifati shuncha yuqori bo‘ladi, xaridor ko‘payadi. Shu maqsadda xorijiy navlarni mahalliy lashtirish, yangi ish tajribasini ommalashtirish uchun tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan hamkorlikda ishlayapmiz. Joriy mavsumning o‘zida bu yo‘nalishda besh marotaba ko‘rgazmali seminar mashg‘ulot o‘tkazdik, tajriba almashdik. Asosiy maqsad — tepshirar, hosildor navlar yaratish.

Bahromjon Usmonov ham shu mahalladagi usta tomorqachilardan. 30 sotix tomorqasining yigirma sotixida bir necha yildan beri malina yetishtiriladi. Bundan tashqari, pomidor, sabzi,

kartoshka baravj rivojlanmoqda. Tartib bilan ekanligi mevali daraxtlar ham hosiliga kirgan.

— Tomorqada malina yetishtirishni boshlaganimga chorak asrdan oshdi, — deydi Bahromjon aka. — Ilgari bugungidek qulay shart-sharoit yo‘q edi. Mahsulotni sotish ko‘plab ovoragarchilikka sabab bo‘lardi. Malinani terib, Farg‘ona shahri va boshqa bozorlarga tog‘oralarda olib borishga majbur bo‘lganmiz. Bu ortiqcha vaqt va qo‘shimcha xarajat keltirib chiqargan. Endi hammasi o‘zgardi. Mahallamizda ulgurji bozor ochildi. Tomorqada turib mahsulotlarimizni dunyoga sotayapmiz, buyurtmalar qabul qilyapmiz. Bu yil 60-70 million so‘m daromadni ko‘zlab turibmiz.

— Malina parvarish bilan birga, suvni yaxshi ko‘radi. Unga mehr bergan kishi mehnatining samarasini tez ilg‘aydi. Umidjon Qodirov ana shundaylardan. Farzandlarini kamolga yetkazishda tomorqadan kelayotgan daromad muhimligini ta‘kidlaydi. Aytishicha, to‘ng‘ich qizi Farg‘ona davlat universitetida to‘lov-kontrakt asosida tashil olibdi, yana bir qizi bitiruvchi kurs talabasi.

— Malina yetishtirishning gashiti o‘zgacha, — deydi Umidjon. — Yerimiz unumdor, ekin ekib, daromad olaman, deganga barcha shart-sharoit bor. Eng muhimi, havo musaffoligi malina yetishtirishga mos. Shu bois, malina yetishtirish, sotishda ortiqcha qiyinchilikka duch kelmaymiz. Kerakli agrotexnik tadbirlarga amal qilgan holda, albatta, bor mehmrimizni beramiz.

Ish tajribasini ommalashtirish, tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, ichki va tashqi bozorga xaridorigir mahsulotlar yetkazib berishga e‘tibor kundan kunga ortmoqda.

mumkin. Qimmatbaho qora ikraning bozor narxini esa o‘zingiz chamalayvering.

Mahalliy samaradorlik qanday?

Yurtimizda baliq yetishtirishning intensiv texnologiyalari ommalashib, yangi turlar mahalliy lashtirilayotgani, bozorlarimizda baliq mahsulotlari turi ortib, aholi talabi qondirilayotgani quvonarli. Ammo bundan nafaqat aholi, balki ishlab chiqaruvchilar ham manfaatdor bo‘lishi, iqtisodiy samaradorlik ortishi lozim. Shu jihatdan osyotr balig‘ining 7-8 yilda voyaga yetib, daromad berishini kutish xo‘jaliklar uchun qanchalik samarador ekanini bilish qiziqdik.

— Iqtisodiy samaradorlik bo‘lmaganda texnologiyani yaratish ustida ishlamasdik, — deydi Abdulla Qurbonov. — Hozir rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda osyotr turidagi baliqlarni ko‘paytirishga uzoq muddatli investitsiya kiritilayapti. Bozorda uning narxi ancha baland. Hatto birjalarda osyotmning bahosiga nisbatan belgilash, degan tushuncha paydo bo‘ldi. O‘zbekiston faol rivojlanayotgan davlatlar sirasiga kiradi. Aholi turmush sharoitining yaxshilanishi qimmatbaho mahsulotlarga talabni ham oshirmoqda. Qolaversa, mamlakatimizda turizm sohasi jadal rivojlanayapti. Shu jihatdan mahalliy bozorda ham, xorijlik sayyohlarda ham osyotr balig‘i va qora ikraga talab bor. Eksport masalasi esa alohida mavzu. Uzoq vaqt kutishga kelsak, baliqchilik xo‘jaliklari osyotmni qo‘shimcha mahsulot sifatida yetishtirsa, xarajatning sekin qaytishi sezilmaydi. Yaqin yillarda bizda ham bu yo‘nalishga uzoq muddatli investitsiya kiritish rivojlanadi. Shular haqida baliqchilik xo‘jaliklariga tushuntirish berib, amaliy yordam ko‘rsatayapmiz. Natijada birgina osyotr yetishtirish bo‘yicha hududlarda bir qancha loyihalar boshlangan. Ochig‘i, bir necha yillar oldin mahalliy sharoitda osyotmni sanoat usulida yetishtirish ham muammo edi. Olimlar ko‘magida buni uddaladik. Endi ushbu baliq turini qay tarzda, qanday maqsadda yetishtirish tadbirkorlarimizning uddaburonligiga bog‘liq. Yaqin yillarda yurtimizda osyotr balig‘ini yetishtirishni ommalashtirish va qora ikra olish baliqchilik sohasida yangi yo‘nalishga aylanishi kutilmoqda. Texnologiya hududlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilar soni ortishi, aholiga arzon va sifatlil baliq mahsulotlari yetkazib berish hamda eksportbor mahsulotlar turini kengaytirishga xizmat qiladi.

Osyotmni to‘g‘ridan to‘g‘ri taomga ishlatishdan tashqari, qayta ishlab, tuzlangan, dudlangan, muzlatilgan yoki konserva holida iste‘mol qilish ham mumkin. Ayrim davlatlarda esa osyotr balig‘ining terisidan charm sifatida foydalaniladi. Baliqning tangachalari bo‘lmagan, juda chiroyli terisidan asosan, ayollar sumkasi tikiladi. Kelgusida yurtimizda bu yo‘nalishda ham ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yib, hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish mumkin.



Prezidentimizning “Mevasabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu borada yangi imkoniyatlarni eshigini ochdi. Qaror ijrosi doirasida tumanidagi 575 ishsiz fuqaroga ochiq aksion orqali 138 gektar ekin maydoni 10-15 sotixdan 30 yil muddatga ajratildi. Bu tomorqalarda malinachilik plantatsiyalari tashkil etildi. O‘tgan yili ekanligi sarxil ko‘chatlar baravj rivojlanayapti. Bu mavsumda ilk hosil nishonlari terib olinadi.

— Ishsizligim uchun “Ayollar daftari”ga kiritilgandim, — deydi “Dilkusho” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Go‘zalxon Ermatova. — Malina yetishtirishim uchun ochiq aksion asosida 15 sotix ekin maydoni ajratib berildi. Yerga 1200 tup ko‘chat ekdim. Nihollarimiz yaxshi o‘syapti. Ko‘chatlar oraliqda ro‘zg‘or uchun kerakli sabzavotlar ekib, daromad olmayapmiz. Bu juda katta imkoniyat. Shu tufayli doimiy ish bilan band bo‘lib, ro‘zg‘orimizni tiklab oldik.

Vodilliklarning malinachilik bilan bog‘liq amaliy ish tajribasi Quva tumanida ham ommalashyapti. “O‘zbek” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Dilshod Yusunov tomorqasida malina va ko‘chatni yetishtirish hamda saqlash borasida samarali izlanishlar qilyapti. Yosh tomorqachining bu boradagi tajribasi e‘tirof etilib, “Namunal tomorqachi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

Rasuljon KAMOLOV,

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

600 nafarga teng.

2024-yil 6-iyul, 134-son

Mulohaza

IJODIY FIKRLASH,
KREATIV G‘OYALAR
VA AMALIYOTNI
UYG‘UNLASHTIRAMIZSherzod NE‘MATOV,
fizika-matematika fanlari doktori,
professor

Joriy yil 19-iyunda Prezidentimiz maktabgacha va maktab ta’limi sifatini, pedagoglar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo’yicha takliflar taqdimoti bilan tanishish asnosida sohani rivojlantirish bo’yicha qator vazifalarni belgilab berdi.

Taqdimotda soha mutasaddilari malaka oshirish markazlari hamda pedagogika kollejlari imkoniyatidan to’la foydalanish uchun Prezident maktabi tajribasi asosida Abdulla Avloniy nomidagi milliy tadqiqot institutida bog’cha va maktablar rahbar hamda pedagoglarining har 5 yilda malakasini oshirish tizimini yo’lga qo’yish taklifi bildirildi. Shuningdek, hududlardagi 11 ta pedagogika kollejlari malaka oshirish markazlari tasarrufiga o’tkazib, xorijdan trenerlar jalb etish, kam quvvatda ishlayotgan pedagogika kollejlari



negizida bog’cha va maktablar, texnikumlar, “Barkamol avlod” maktabi tashkil qilish shahbabi bildirildi. Mazkur takliflar ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatiga e’tiborni kuchaytirish, sohada ilg’or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilashga hissa qo’shishi kutilmoqda.

Mamlakatimiz o’qitish tizimini takomillashtirish uchun rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish ham samara bermiqda. Misol uchun, Finlyandiya maktabgacha ta’limiga katta e’tibor beriladi. Dars jarayonida ularning erkinligi cheklanmaydi. Bu bolalarda mantiqiy hamda ijodiy fikrlashni kuchaytiradi. Biz ham rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimidagi islohotlarni o’rganish va institutimizda tatbiq etish uchun o’qituvchilarimizni tajriba oshirgani Finlyandiya Xalqaro Nordik universitetiga yuboraymiz. Kelgusida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirib, institutimizdagi o’quv rejalar rivojlangan davlatlar ta’lim tizimiga moslashtiriladi. Shuningdek, hamkor oliy ta’lim muassasalari va tashkilotlar bilan birga qo’shma dasturlar ishlab chiqish hamda ilmiy konferensiyalar tashkil etish rejalashtirilgan. Bu talabalarga zarur bilim va ko’nikmalarni

egallash, tajriba almashish va yangi innovatsion yechimlar izlashda yordam beradi.

Shu orqali talabalarimizning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirish va global miqyosda muvaffaqiyatli karyera qurish imkoniyatini taqdim etish niyatidamiz. Malaka oshirish dasturlarini kengaytirish bilan birga, ilmiy-tadqiqot ishlariga e’tibor qaratamiz. Talabalarimizning ilmiy yutuqlari xalqaro miqyosda tan olinishi uchun bor bilim va tajribamizni qo’llaymiz.

Taqdimotda Qori Niyoziy nomidagi O’zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti negizida Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish belgilandi. Institut oldiga “mahalla — ota-ona — maktab” hamkorligini kuchaytirish, ota-onalar va bolalar uchun tarbiyaga oid adabiyotlar yaratish, jadidlarning tarbiyaviy qarashlarini ilmiy tadqiq etish kabi vazifalar qo’yildi. Bu har bir o’quvchining bilim olishiga alohida e’tibor qaratilayotganini anglatadi. Zotan mahalla, ota-ona, maktabning o’zaro birlashib, faoliyat yuritishi bolaning barkamol shaxs sifatida voyaga yetishiga sabab bo’ladi.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti ham maktab va mahalla bilan hamkorlikni yo’lga qo’ygan. Ijara xonadonlarda yashayotgan talabalarining turmush sharoiti mahalla faollari bilan hamkorlikda o’rganilmoqda. OTM pedagogika yo’nalishiga ixtisoslashgani hamda talabalarimiz kelgusida yoshlarga ta’lim-tarbiya berishini inobatga olib, iqtidorini rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, institutda turli tanlovlar tashkil etilib, ularning iqtidori sinovdan o’tkazilmoqda. 2023-2024-o’quv yilida bir necha talabamiz Prezident davlat stipendiyasi hamda nomdor stipendiyalarga munosib ko’rildi.

Endi yoshlarning startup g’oyalari qo’llab-quvvatlash uchun tanlovlar tashkil etib, g’oyalarni realizatsiya qilish uchun kerakli resurs va imkoniyatlar taqdim etamiz. Bu tanlovlar orqali talabalar innovatsion g’oyalari namoyish etish va tajribalari mutaxassislar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo’ladi. Shuningdek, biznes reja tuzish, mahsulotni bozorda

joylashtirish, moliyalashtirish va marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo’yicha amaliy ko’nikmalarni o’zlashtiradi. Tanlov g’olblari nafaqat pul mukofoti, balki investorlar va hamkorlar bilan uchrashish imkoniyatini ham qo’lga kiritadi. Shu bilan birga, dasturlar orqali ular o’z loyihalarini yanada rivojlantirish va amalga oshirish uchun yo’l-yo’riq oladi.

Asosiy maqsadimiz — talabalarimiz ijodiy fikrlashini rivojlantirish. Shuningdek, asosan, amaliyot orqali bo’lg’usi pedagoglarning bilim va ko’nikmasini mustahkamlab borishga e’tibor qaratilmoqda. Hozir aksariyat talabalar hududlardagi umumta’lim maktablarida amaliyot o’qimoqda. Jarayon davomli bo’lib, dual ta’lim prinsiplariga asoslangan.

Yangi O’zbekiston — iste’dod qadrlanadigan mamlakat. Bugun ilm-fan, ta’lim, innovatsiya, texnologiya va kadrlar zamonaviy demokratik jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili ekaniga hech kim shubha qilmaydi. Mamlakatimiz taraqqiyotini zamon talablariga mos ravishda ilm-fansiz tasavvur etish qiyin. Shunday ekan, astoydil mehnat qilib, yosh avlodni yetuk kadrlar sifatida tayyorlashimiz lozim. Buning uchun esa barcha imkoniyat mavjud. Faqat bundan unumli foydalanib bo’lmaydi.

O‘zbekistonda aholi juda zich yashaydi. Joriy yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, bir kvadrat kilometr yer maydoniga 82 kishi to‘g‘ri kelmoqda. Vaholanki, 1991-yilda bu ko‘rsatkich 44 nafar edi. Masalaga hududlar miqyosida e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Andijon viloyatida bir kvadrat kilometrda 789,4 kishi istiqomat qilsa, Farg‘ona viloyatida bu ko‘rsatkich 600 nafarga teng.

Tahlil

ICHKI MIGRATSIYA
VA URBANIZATSIYA

Muammolar qanday hal etilmoqda?

Ayni paytda O‘zbekiston aholisi soni 37 milliondan oshdi. Yurtimizda yiliga o‘rtacha 700 mingdan ziyod chaqaloq dunyoga kelmoqda. Har yili taxminan yarim million atrofida o‘quvchi umumiy o‘rta ta’lim maktablarini bitiradi. O‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarini tugatadiganlar ham ko‘p. Ochig‘i, bular bir qarashda shunchaki raqamlardek tuyulishi mumkin. Lekin ushbu sonlar ortida katta rejalar, tahlillar, sa’y-harakatlar, maqsadlar mujassam. Masalan, har yili o‘rtacha 700-800 mingta ish o‘rni yaratilishi kerak. Bu esa oson ish emas.

Samandar DOLIIYEV,
“Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo‘jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” Milliy
tadqiqot universiteti
doktoranti

ichimlik suv, elektr va gaz ta’minoti, transport tizimi, tibbiy xizmat, maktabgacha, boshlang‘ich va o‘rta ta’lim muassasalari barpo etish, targ‘ibot va tashviqot yo‘llari bilan aholisi zich joylashgan viloyatlardan odamlarni ko‘chirish, ularga shartnomalar asosida yer ajratib berish, ishlashi uchun sharoit yaratish, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash turish lozim.

Bu bilan nimaga erishiladi? Avvalo, “Dehqon boy bo’lsa — yurt boy bo’ladi”, degan naqlning asosi shu yerda o‘z tasdiq’ini topadi. Fuqarolarning viloyatlarga munosib, ya’ni demografik joylashishi optimallashtirish, ishlov beriladigan yerdan unumli foydalanilib, hosildorlik oshadi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari narxi arzonlashadi, meva-sabzavat va poliz ekinlari eksporti ko‘payadi, odamlar hayoti farovonlashadi.

Mamlakat iqtisodini ko‘tarish, ishsizlar sonini kamaytirishda urbanizatsiyaning roli juda muhim. Urbanizatsiya lotincha “urbanus” so‘zidan olingan bo‘lib, “shaharlik” ma’nosini anglatadi. Ko‘chib kelish hisobiga jamiyat taraqqiyotida shaharlarning roli ortib borishini bildiradi. Bu jarayon shaharlar paydo bo‘lgandan buyon davom etib kelmoqda. Masalan, 1800-yilda dunyo aholisining 3

O‘zbekistonda aholi juda zich yashaydi. Joriy yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, bir kvadrat kilometr yer maydoniga 82 kishi to‘g‘ri kelmoqda. Vaholanki, 1991-yilda bu ko‘rsatkich 44 nafar edi. Masalaga hududlar miqyosida e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Andijon viloyatida bir kvadrat kilometrda 789,4 kishi istiqomat qilsa, Farg‘ona viloyatida bu ko‘rsatkich 600 nafarga teng.

Vodiyda ilgari ham aholi juda zich yashagan. Shuning uchun bu yerdagi aholi o‘tgan asrning 30-40-yillarida Surxondaryo viloyati va Tojikiston janubiga ko‘chirilgan. O‘sha aholining avlodlari hozir ham ushbu hududlarda yashayapti. Keyinroq Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi tufayli hozirgi Sirdaryo va Jizzax viloyatlariga ham ixtiyoriy, ham majburiy ko‘chirmalar amalga oshirildi. Cho‘l hududlarida migrantlar hisobiga ko‘plab xo‘jaliklar tashkil etildi. Natijada ishga yaroqli

XVII-XVIII asrlarda Angliya va Prussiyada shahar aholisi tez sur‘atlarda o‘rib, umumiy aholining 25 foizini tashkil etardi. 1861-yilga kelib, Buyuk Britaniyada 38,2 foiz aholi 20 mingdan ko‘p odam yashaydigan shaharlarda istiqomat qilardi. 2007-yilda dunyo bo‘yicha birinchi marta shaharlar aholisi qishloqlar aholisidan ko‘p bo‘ldi.

yuz minglab aholi ish o‘rinlariga ega bo‘ldi. Hozir ham yuzlab vodiylar Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo hamda boshqa viloyatlarda chorvachilik, bog‘dorchilik va dehqonchilik qilish maqsadida vaqtinchalik ichki mehnat migratsiyasini amalga oshirmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlariga viloyatdagi biriktirilishi tufayli bugun ko‘plab odamlar Orolbo‘yi yida mehnat qilaypti. Natijada Qoraqalpog‘istonda dehqonchilik rivojlanishi bilan birga, odamlar ishi bo‘lyapti.

O‘zbekistonda dehqonchilik qilinadigan 4 million kergarga yaqin yer mavjud. Buncha yerga ishlov berish uchun, albatta, mehnatkash va bilimli dehqonlar kerak. Mehnatga yaroqli aholi viloyatlar kesimida turli zichlikda joylashgani sababli ishlov beriladigan yerdan nisbatan kam samaradorlik bilan foydalanilmoqda. Farg‘ona vodiysi viloyatlarida dehqonchilikdan olinayotgan hosil miqdori bilan Qoraqalpog‘iston yoki Navoiy viloyatida yetishtirilayotgan hosil miqdorini solishtirib bo‘lmaydi.

Xo‘sh, bu muammoning yechimi nimada? Davlat miqyosida dastur yaratish, unda ishlov beriladigan yeri ko‘p, lekin aholisi kam hududlarning chuqur tahlilini o‘tkazish, shu asosda u yerda aholi uchun infratuzilma —



hududlarni egallaydi. Aholining ko‘pchiligi xususiy hovlilarda yashashi tufayli dehqonchilik qilish mumkin bo‘lgan atrof-dagi unumdor yerlar kamayishiga olib kelgan. Boshqacha aytganda, shaharlarimiz bo‘yiga emas, eniga o‘sgan. Masalan, keyingi 15 yilda Toshkent aholisi 10,9 foiz ko‘paygan bo‘lsa-da, zichligi bor-yo‘g‘i 2,2 foiz o‘sdi. Shu vaqt ichida Markaziy Osiyodagi boshqa shaharlar — Olmota, Ashxobod va Dushanbeda esa zichlik o‘ssishi 26-36 foizga teng bo‘ldi. Bu O‘zbekistonda shaharlar aholisi o‘ssishiga yetarli munosabatda bo‘linmaganini ko‘rsatadi. Urbanizatsiyaning nazorat qilishning yomonlashuvi odamlar farovonligiga xizmat qilmaydi.

Dunyo tajribasi ko‘rsatmoqdaki, urbanizatsiya jarayoni pastligi va qishloq aholisining shaharga kelmasligi ularning yaxshi yashashga intilmasligini ko‘rsatmaydi, balki iqtisodiyot markazlariga kelishi uchun qandaydir to‘siq borligidan nishona.

Bunga misolni uzoqdan izlash shart emas. Istiqolga erishganimizdan so‘ng ko‘p yillar Toshkentga kelish va doimiy ro‘yxatdan o‘tish taqiqlangan edi. Eng qizig‘i, O‘zbekiston fuqarolari ayrim davlatlarda 10-15 kun yurgan holda mamlakat poytaxtida 3 kundan ortiq yurishi mumkin emasdi. Istaymizmi, yo‘qmi, bu Toshkent iqtisodi rivojiga salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Toshkent Markaziy Osiyodagi eng aholisi ko‘p va eng katta shahar, megapolis bo‘lsa-da, ko‘plab xorijiy kompaniyalar hamda ishbilarmonlar biznes yuritish uchun boshqa poytaxtlarni tanladi va o‘sha davlatlarda o‘z vakolatxonalarini ochdi.

2017-yildan so‘ng bu salbiy holatga chek qo‘yildi. Bugun qishloq odamlarining shaharga intilishi juda kuchli. Masalaga davlat miqyosida e’tibor qaratilgan. Prezidentimiz shaharlarimizni obod qilish bilan birga, ularga sanoatni olib kirish, investitsiyanal hal etish, ishlab chiqarishni kengaytirish tufayli odamlarni ish bilan ta’minlash lozimligini ko‘p bor ta’kidlagan.

“...urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirgan holda, hududlarni kompleks rivojlantirish, aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish kerak.

Shu ishlar doirasida 7 ta yirik shahar — Andijon, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Farg‘ona, Namangan, Nukusga tutash bo‘lgan 12 ta yo‘ldosh shaharcha tanlab olinib, ularni rivojlantirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Ana shu vazifa bilan bog‘liq yana bir masala shuki, asosiy ishchi kuchi yashaydigan va ish o‘rinlari yaratilayotgan hududlarimiz o‘rtasida tafovut mavjud. Buning yechimi — ichki migratsiyaning erkinlashtirishdan iborat,” degan edi davlatimiz rahbari 2020-yil Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida. Hozirgi kunda ushbu yo‘nalishdagi ishlar jadal olib borilmoqda. Hududlarda Yangi O‘zbekiston massivlari paydo bo‘lyapti. Ulariga mos ravishda turli sanoat va ijtimoiy obyektlar ishga tushirilaypti.

Mamlakat ichidagi mehnat migratsiyasi ishchi kuchining qishloqlardan shaharlarga, tuman markazi va shaharchalardan boshqa yirik shaharlarga, bir viloyatdan boshqa viloyatga bo‘lishi mumkin. Mehnat migratsiyasi yo‘nalishi ishlab chiqarish rivoji, joylashishi, iqtisodiyot tarmoqlarining ishchi kuchi bilan ta’minlanganlik hamda aholining turmush darajasidagi tafovutlar bilan belgilanadi. Mamlakat mintaqalari bo‘yicha ichki mehnat migratsiyasi 8,9 foizga teng. Xususan, ichki migratsiyaning 70-80 foizi Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Qishloq-shahar migratsiyasi mamlakatda ijobiy ahamiyatga ega. Zero, aholining ko‘pchiligi qishloqlarda yashaydi va u yerda ko‘payish sur’ati ham yuqori. Bu mamlakat qishloq joylarida yangi ish o‘rinlari yaratishga birinchi darajali ahamiyat berish kerakligini anglatadi.

Xo‘sh, nima uchun odamlar, ayniqsa, yoshlar poytaxtga intilmoqda? Buning bir necha sababi bor. Birinchisi, Toshkent mamlakatning ishbilarmonlik markazi, yirik biznes subyektlari idoralari, respublika miqyosidagi barcha vazirlik va qo‘mitalar shu yerda joylashgan. Ish o‘rinlari yetarli, oyliklar hududlardagidan sezilarli farq qiladi. Bundan tashqari, yoshlar uchun kasbiy rivojlanish imkoniyati yuqori. Garchi keyingi yillarda viloyat markazlari va ayrim shaharlarda ham oliy o‘quv yurtlari ochilgan bo‘lsa-da, yaqinlashgan barcha muhim yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlaydigan institut va universitetlar poytaxtda edi.

Bundan chiqadigan xulosa shuki, barcha viloyatlar markazlarida, shuningdek, kattakich shaharlarda Toshkentdagidek sharoitni yaratish lozim. Shunda rivojlanish, taraqqiyot mamlakat bo‘ylab keng yoyiladi.

Shu o‘rinda bir muammo haqida to‘xtalib o‘tmasak bo‘lmas. Afsuski, XXI asrga kelib ham noqonuniy mehnat bozorlari tugatilmagan va bizda ham mavjud. Ular xalq tilida “mardikor bozorlar” deyiladi. Bu bozorlardagi yollanma ishchilarga qonun bilan kafolatlangan mehnat sharoitlari yaratilmagan. Yollanma ishchilar, asosan, uydagi turli yumushlar, qishloq xo‘jaligi va qurilish sohasida faoliyat yuritadi. Bu vaqtinchalik faoliyat. Eng yomoni, ishchilarda tanlash imkoniyati mavjud emas.

Ushbu masalalarni hal etish uchun autorsoring xizmatini tashkil etish lozim. Bunday xizmatni maxsus tuzilgan shirkatlar amalga oshiradi. Ishchilar, o‘z navbatida, bu korxonaga vaqtinchalik emas, doimiy ishga olinadi. Shirkatlar shartnoma asosida boshqa subyektlarga vaqtinchalik yoki doimiy xizmat ko‘rsatadi.

Masalan, fermer xo‘jaligiga besh kunga chopiq uchun 50 ta ishchi kerak. Yer egasi besh kun uchun doimiy ravishda 50 kishini ishga ololmaydi. Shartnoma orqali vaqtinchalik qonuniy ishchi olish esa vaqt va qo‘shimcha resurslarni talab qiladi. Shu bois, fermer noqonuniy ravishda 50 odamni ishga yollashga majbur. Autorsoring sharoitida bu 50 kishini maxsus shirkat fermerga yetkazib beradi va besh kundan so‘ng bu ishchilar boshqa ishga yo‘naltiriladi. Autorsoringning afzalligi, ishchilar mustaqil ish izlamaydi va bo‘sh turmaydi. Ushbu tizim Isroilda keng rivojlangan. Balki bunday ish usulidan bizda ham foydalanish vaqti yetgandir.

Ichki mehnat migratsiyasini to‘g‘ri taqsimlash, urbanizatsiya rivojiga e’tiborni kuchaytirish, so‘zsiz, yangi ish o‘rinlari ochilishiga, aholi bandligi ta’minlashiga, pirovardida farovonlik oshishiga xizmat qiladi.

Oltin sirg'a

Boshlanishi 1-betda

Ibrohim G'afurov

saboqlaridan uzindilar



Unutmang, Alisher Navoiy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'onyidek ko'p buyuk bobolarimizdan kelayotgan ruh, nafas sizlarda hozir hukmron kuch bo'lib turibdi.

Hozirgi ijodiy mashqlaringiz birdan dunyoni egallab ololmas, o'zbekning qalbini shu onda ishg'ol qilmas, lekin hozir yozayotganlaringiz, haqiqiy ma'noda, xuddi Abdulla Oripovning birinchi she'rlari, Erkin Vohidovning "Qoratal"dek ajoyib she'ri kabi qalblarni zabt etish uchun yo'lga chiqqan bo'lsa, ne ajab!

O'ZBEKISTON QAHRAMONI, TANIQLI MUNAQQIDNING ZOMIN SEMINARI YOSH IJODKORLARIGA AYTGAN UYG'OQ FIKRLARI

- Bugun siz yozayotgan asarlarni hozirgi kunimizning nafasini aks ettirayotgan, xalqimizning intilishlari, izlanishlari, ruhoniy, ma'naviy dunyosini ko'rsatib berayotgan va kelajakning najotkor estetikasi, go'zalligini ifodalab berayotgan asarlar, deb o'ylayman.
- Hayot va odamlarni tinimsiz kuzating. Kuzatibgina qolmay, bu voqeiklarni o'tmish va kelajak bilan taqqoslashingiz kerak. Bu esa sizda ijodkorlikningiz emas, mutafakkirlikni ham uyg'otadi. Ijodkor bo'lish bilan birga mutafakkir, olim, badiiy munaqqid ham bo'ling! Mana shu jihatlardan ijodkor sifatidagi qiyofangiz hosil bo'ladi. Bittasi kam bo'lsa ham ijodingizda to'kislik bo'lmasligi mumkin. Shu fazilatlarini o'zingizda mujassam qilish uchun har qanday mashaqqatga chidashingizga to'g'ri keladi!
- Ijodkor uchun eng kerakli jihat nima? O'zingizning rivoyat, bayon, badiiyat uslubingizni topib olishingiz zarur. Qalbingiz nimaga qodirligi, qanday o'ringa loyiqligi, dunyoning necha botmon yukini ko'tara olishingizni chamalab olishingiz kerak. Hozir bayon uslubingizni topmasangiz, yangi ijod maydonlarini egallashingiz qiyin bo'ladi.
- Bo'lajak shoir, ijodkor, nosir, tanqidchi, dramaturg sifatida o'zingizni o'zingiz kashf etishingiz kerak.

Ijodkor o'zini o'zi qanday yaratadi? Albatta, obrazli metaforik so'zlar, ifodalar vositasida. Hayotni, odamlarni ko'rib, minglab taqdirarni ko'z o'ngingizga keltirib, ularning achchiq va shirin kechmishlarini kuzatib o'zingizni yaratasis.

O'zingizni ulkan ijodiy ishlarga qodir, deb his qilishingizni va shuni anglash, sezish darajasida oldingizga muhim ijodiy maqsadlar qo'yishingizni so'ragan va iltijo qilgan bo'lardim.

Siz — kelajakning najoti bo'lgan, kelajakni o'zingizning ijodiy izlanishlaringiz, yangiliklaringiz bilan belgilaydigan va O'zbekistonni jahonga olib chiqadigan yoshlarsiz. Shu bois, sizning hayot va ijod yo'lingizga beparvo munosabatda bo'lmasligimiz kerak.

Yozuvchi va shoir o'ziga xos uslubini topa boshlar ekan, oldiga aniq vazifalar qo'yishiga to'g'ri keladi. "Yuragimda yongan iste'dod chirog'ini o'chirib qo'ymasligim uchun qanday asarlar yozishim va qaysi paytlarda qalamimni qo'lga olishim kerak?" degan savol hamisha sizni bezovta qilsin!

Ko'ngildagi gaplar

1993-yil bahori edi. Ishtixon tumanining 50 yilligi Navro'z bayrami bilan birga nishonlanadigan bo'ldi. Ukam Orif ikkimizni tumanimizning o'sha paytdagi rahbari To'raqul Yo'ldoshev chaqirtirib qoldi. Men SamDuda talaba, Orif 10-sinf o'quvchisi edi. Kun kech bo'lib qolganiga qaramay, otamning yetovida birin-ketin qabuliga kirib bordik. Hokim barvasta yelkali, qizil yuzli, ovozi guldirab chiqadigan kishi ekan. Erkalab, yelkamizga qoqib ko'risharkan, issiq, tiyrak boqishini rahmatli To'xtash bobomga o'xshatdim.



Muhabbat TO'XTASHEVA, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Xiyla vaqt suhbatlashib o'tirdik. Gap aylanib bayramda o'qishim kerak bo'lgan she'rga taqaldi. Vatan mavzusidagi she'rinni o'qib berdim. Hokimning she'riy ta'bi chakkii emas ekan, badiiyatga daxldor maslahatlar berib, bayram kayfiyatida yana boshqa kattagina she'r yozishimni tayinladi. Orifning maktabdagi baholariga alohida qiziqdi, ayniqsa, matematikadan ilmoqli savollar berib ko'rdi. Keyin bolalar, hayvonlar haqida yozgan she'rlarini maroq bilan eshitarkan, qotib-qotib kuldi. Shu asnoda negadir ukamni o'midan turg'azib bo'y-bastini salmoqlab o'Ichadi, yoshiga nisbatan bo'yi pastdek ko'rindi shekilli, "Qishloqning bolasi alpdai baquvvat bo'lishi kerak, ertalab yugur, ketmon chop, bilagingni kuchga to'ldir", dedi guldiragan ovozda.

Oradan bir hafta o'tib-o'tmay, katta stadionda, keyin "Oqqush" restoranida bayram nishonlandi, talay kazo-kazolar, dovrulqli san'atkorlar keldi.

Bayram boshida turgan tuman rahbarining o'zi bizni katta sahnaga chaqirib, navbat bergani hali-hamon ko'z o'ngimda turibdi.

Shu kuni yangi yozgan she'rlarimizni katta hayajon bilan o'qidik. Hokim boboning quvonchi toshib, otalarcha bag'riga bosib, peshonamizdan o'pib qo'ygan edi. Shundan keyin ham biz To'raqul bobo bilan tumanning tantanalari kunlarida ko'p marta ko'rishib, diydorlashib turdik.

Endi diqqatingizni yanayam olisroqqa, mustaqillikdan ham avvalgi yillarga qaratamiz. Ishtixonning Olqor Damin degan juda kamtarini, bir qaraganda, darveshga o'xshaydigan shoiri bilan otam qalin do'st edi. Ko'pincha ular adabiy davralardan chiqib choylashar, orada uzun-uzun suhbatlar kechardi. Orif ikkimiz bir chekkada ularning gurgunini jimgina eshitib o'tirar edik.

Bir galgi davrada shoir tumanimizning avvalgi rahbari Azim Tillayev haqida yaxshi gaplar aytib qoldi. O'sha yillari maktabda oddiy o'qituvchi bo'lib ishlab yurarkan. Bir kuni Chilikchi qishlog'idan hozir oilasi yashaydigan Bo'stonga ketayotib, daraxt soyasida dam oladi. Ulov yo'q, kun esa issiq. Sumkasidan daftar-qalam olib, she'r yozib o'tirsa, uzoqdan hashamatli mashina qorasi ko'rinadi. Qo'lini ko'tarib, to'xtatadi. Qarasa, mashinada tuman rahbari Azim Tillayev o'tirgan emish. Shoir ancha tortinchoq odam edi, uyalib, kalovlanib qoladi, ammo boshqa ulov yo'qligidan noilol mashinaga chiqib o'tiradi. Yo'l-yo'lakay suhbatlashib ketishadi. Nima yozayotgan edingiz, deb so'raydi qiziqsinib Tillayev. Ilhomim kelib qoldi, she'r yozib o'tiruvdim, deydi shoir. Manzilga yetib kelgach, Tillayev shoirga ertaga ertalab qabuliga borishini tayinlab, xayrlashib, jo'nab ketadi.

Ertalab qabuliga borgan shoirni tuman rahbari zo'r ehtirom bilan kutib oladi. Xuddi ertaklardagidek "Tilang tilagingizni, sizga qanday yordam bera olaman?", deydi baralla. Avvaliga shoir Hazrati Xizrga yo'liqib qolmadimmi, degan o'ya shoshib qoladi. Rosdan ham naq ertakni eslatadigan sehirli hislar, lahza o'rab olgandi shu tobd shoiri. Nima so'rasa ekan-a? Toshkentda

So'z hayotning iligidir

ancha yillar "O'qituvchi" nashriyotida ishladi, o'zi u yozqda, oilasi bu yozqda aro yo'lda qiyaldi. Buning ustiga Yozuvchilar uyushmasiga a'zolikka olishmayapti. Mana, noilollikdan yana qishlog'iga qaytib kelib, o'zi o'qigan maktabda ishlab yuribdi. Tuman rahbariga Olqor Damin hozirgina xayolidan o'tkazgan mana shu gaplarni aytib beradi. Shu kundan boshlab uning ishi yurishib ketadi. Uy qurishi uchun Chilikchi qishlog'idan yarim gektar yer ajratilib, qurilish uchun zarur ashyolar o'z narxida yetkazib beriladi.

Mana bu voqeaga esa uch yil bo'ldi. "Do'mon" ijodiy guruhining yuz nafardan ortiq a'zosi birgalikda avval Xorazmga, keyin esa Farg'onaga ijodiy safarga bordik. Xorazm viloyati hokimligi, Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, qator tashkilotlar tik oyoqda turib xizmat qildi. Ularning adabiyotga, ijodga ulkan mehdidan tamomila hayratlandik. "Xorazm ziyorati" nomli she'rinni yozganman o'shanda. Farg'onada esa viloyat va tuman rahbarlari biz bilan yonma-yon yurdi, tadbirlarda tengma-teng she'rlar o'qidi... Ayniqsa, o'sha paytda Uchko'prik tumaniga rahbarlik qilgan (hozir Sirdaryo viloyati hokimi) Akmaljon Mahmudaliyevning qiyofasi, keng garishli ko'zoynagi va yoqimtoy chehrasini hech qachon unutmaymiz. Shoirlarga bir kunini bag'ishlab, tumanidagi iqtidorli o'quvchilar, kutubxonalar, muzeylar faoliyati bilan bir-bir tanishtirib, qalbini qalbiga payvasta qilib yurganini unutib bo'ladimi, axir?! Shuningdek, safarimiz mobaynida Qo'qon shahri hokimi Ma'rufjon Usmonov, Buvayda tumani hokimi Behzod Ibrohimovdan ham behad minnatdor bo'lganmiz.

Uchko'prik tumanida ekaniimizda bizning tumanimiz rahbari ham shunday bo'lsa, bahamjihat tadbirlar qilsak, kelib yonimizda o'tirsa, fikrlashsak, kengashsak, degan yoniq istak ich-ichimni yondirib o'tdi. Oradan bir yil o'tdi yo o'tmadi, tumanimizga yangi hokim tayinlangani xabarini eshitdik. Yuragimdagi bulturqi olov yana lovvuladi. Shu istak bilan bir kuni hokimlik tomon dadil yo'l oldim. Yangi hokimni ko'rgim, tanishgim keldi. Niyatim xolis ekan, Fazliddin Ro'ziyev bilan eshikda to'baro' kelib qoldik. Kiraverishda muloqot xonasi bor ekan, sizga

gapim bor, deyishim bilan shu joyga boshladi. Yosh va shijoatli, tik qomatli, kulgichlari o'ziga g'oyat yarashib turar edi. "Siz Toshkentdagi ijod ahlini yig'ib keling, Ishtixonadagilarni o'zimiz chaqirib, birinchi tanishuv tadbirini o'tkazamiz", dedi tantilik bilan. Bu taklifdan benihoya shod bo'ldim. Xayrlashayotib, negadir ketmay turishimni tayinladi-da, shoshib mashinasi tomon yurdi va qo'lida bir talay kitob bilan qaytdi. Orasidan qalin ikki kitobni — turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntekinning "Yashil kecha", O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarlarini ajratib, menga hadya qildi. Dastlab lob bo'lib qoldim, o'zi bilan kitob olib yuradigan insonni ko'rish



chindan ham yoqimli va hayratli edi. Go'yo chiroq yoqqanday ko'nglim yorishib ketdi.

Shundan keyin Ishtixonada adabiyotning tuzday tatimli kunlari boshlandi. Qabatimga ijodkorlar Gulchehra Usmonova, To'liqin Eshbek, ukam Orif To'xtash qo'shildi, o'zaro maslahatlashdik. Ishtixon ijod maktabi yangi bichimda, yangi ruhda, yangi nafasda faoliyat boshladi. Maktabning ijtimoiy tarmog'dagi sahifasi ochildi. U vaqlar har bitta maktabda targ'ibotchilar ishlab turar edi, ularni ham safimizga qo'shib oldik.

Birin-ketin Ishtixon ijod dunyosida bayramlar boshlanib ketdi. Yozgi va qishki kutubxonalar qurilib, foydalanishga topshirilishi,

uy-muzeylar ochilishi, yangi kitob taqdimoti, shoir-yozuvchilarning yubiley sanalari, yosh ijodkorlarning ilk kitobini chop ettirib berish, xotira marosimlari...

Masalan, 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Ishtixon ijod maktabining bugun oramizda bo'lgan ijodkorlari — Abdulla Turdiyev, Zayniddin Bahriddinov, Olqor Damin, Baxtiyor Rabbimqul, O'tkir Saidov, Toshpo'lat Mavlonov, Ibrodixon Bahodirov, otam Abdumajid To'xtashev yorqin xotirasiga yodga olindi. Ularning ibratiga to'la hayoti, qoldirgan ijod namunalari e'tirof etildi.

Shukrki, bunday shiru shakar tadbirlar bugun Fazliddin Ro'ziyev boshchiligidagi bir paytlar biz havas qilgandek jozibali o'tkazilmoqda. Ishtixon ijod maktabida bugun ellikdan ziyod ijodkor hormay-tolmay ijod qilmoqda, nazm va nasrdagi kitoblarini xalqimizga taqdim etmoqda.

Samarqanddagi buyuk allomalarning uch nafari Ishtixonada tug'ilgan. Bular kalam ilmi bilimdoni Imom Moturidiyning shogirdi Imom Abul Hasan Rastug'foni, Burhoniddin Sog'ariy va So'fi O'llohiydori. Ushbu allomalar haqida olim Komilxon Kattayevning "Ishtixoniy olimlar silsilasi", "Imom Abul Hasan Rastug'foni va uning salafu izdoshlari", "Shayx as-Sog'ariy va Ibrohim as-Samarqandiy tarixi" nomli kitoblari hokimlik homiyligida nashr qiltingan ham Ishtixon adabiy muhitidagi katta hodisalardan bo'ldi. Bularning barchasi haqida bugun quvona-quvona gapiraymiz...

E'tibor va kichik e'tirofning o'zi ijodkor boshini osmon qilar, yangi marralar sari ruhlantirgan holda yuragiga ilhom baxsh etarkan. Qolaversa, tunlarni tongga ulab, ne-ne zahmat bilan yozgan asarlari, aslini olganda, shu xalqning ko'nglidagi kechinmalar emasmi?!

Ko'ngil odami deya ta'riflanadigan ijodkorlar bugun har qachongidan ham faollashmoqda. Zero, adabiyotga e'tibor va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish borasidagi ishlar mamlakatimiz bo'ylab kun sayin keng quloch yozmoqda. Poytaxtimiz markazida bunyod etilgan va hatto ko'plab xorijiy ijodkorlarning havasini keltirayotgan "Adiblar xiyoboni", unga yondosh tarzda ko'psonli qalam ahli uchun qurib berilgan uy-joylar, aynan ijodkorlar munosib dam olishi uchun mo'ljallangan "Zarkent" ijod uyi hamda

sanatoriylar, tanigili shoir-yozuvchilarning tantanavor nishonlanayotgan yubileyarlari, kitob taqdimotlari, kitobxonlik bo'yicha tanlovlar... Qaysi birini aytam ekan, deb kalovlanib qoladi odam gohida.

Shu o'rinda ko'z o'ngimizda Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asaridagi uchinchi maqolot — "Sultonlar haqida"gi bobda keltiriladigan shoh G'oziy obrazi gavdalanadi. Esingizda bo'lsa, u jangdan g'alaba bilan qaytib kelar ekan, bir kampir yo'lini to'sib, halok bo'lgan o'g'lining xunini so'raydi. Shunda hukmdor hurmat bilan otdan tushadi va uning oldiga ikki narsa — bir xaltacha oltin bilan o'zining boshini qo'yadi. Qaysi birini istasang, shuni ol, deydi. Yoki bo'lmasa, "Saddi Iskandariy" dostonida shoh Iskandar yaxshilik va yomonlik o'rtasiga devor qurdirib, insonlarni vahshiyatni zulmidan qutqaradi. Ha, Navoiy o'z asarlarini shunday dorilaman kunlar va odil podshohlarni orzu qilib yozgan bo'lsa, ne ajab?!

O'zbekiston xalq yozuvchisi, bolalarning sevimli adibi Muxommed To'xtaboyev bir suhbatda bunday degan edi: "Adabiyotga men felyetonchi bo'lib kirib kelganman. Jamiyatdagi illatlar, zo'ravonliklar, yulg'ichliklar bilan tinimsiz olishardim. Ertalab qo'llarim musht bo'lib uyg'onardim. Alam bilan, nafarat bilan, g'azab bilan felyeton yozib yurib-yurib shunday xulosaga keldimki, bu jamiyatdagi illatlarni tugatish juda qiyin, bir kishining vazifasi emas ekan. Felyeton bilan jamiyatni tuzatib bo'lmas ekan. Nari borsa, bitta odamni yig'latganing qolmas ekan-u xulqqa, axloqqa ta'sir qilmas ekan. Shuning uchun xulqqa, axloqqa ta'sir qiladigan badiiy asarlar yozishga jon-jahdim bilan kirishdim, felyetonidan to'ppa-to'g'ri adabiyotga, bolalar dunyosiga o'tib ketdim".

E'tibor bergan bo'lsangiz, bugungi so'zimiz faqat adabiyot haqida bo'ldi. Adabiyot olamida Ishtixon tumanidagi kecha va bugungi kimdir eshitgan, kimdir hali eshitmagan gaplar, bugungi ma'rifiy va ma'naviy kengashlar haqida. Ijod ahliga beg'araz xizmat va yaxshiliklar haqida. Chunonchi, hayot adabiyotni qanchalik qo'llab-quvvatlasa, adabiyot hayotni, dunyoni qutqaradi. Cho'lponning "Adabiyot yashasa — millat yashar", degan purma'no so'zi bor.

So'z — bu adabiyot, so'z — bu shoh G'oziy adolati, so'z hayotning iligidir.